

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI**

**MA’MURIY ISLOHOTLAR DOIRASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SOHASIDA
DAVLAT BOSHQARUVINI SAMARALI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI
TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son **Farmoni** ijrosini ta’minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari **1-ilovaga** muvofiq;

Soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari **2-ilovaga** muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi tashkilotlarni qayta tashkil etish va nomlash dasturi **3-ilovaga** muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligining tashkiliy tuzilmasi **4 — 4b-ilovalarga** muvofiq;

Raqamli texnologiyalar sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, aholi, tadbirkorlik subyektlari hamda davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlarni raqamlashtirish, shuningdek, raqamli xizmatlar va servislardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida:

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — Yagona portal) raqamli xizmatlar va servislar ko‘rsatish hamda ularning natijasini olishning yagona nuqtasi hisoblanadi;

Yagona portal orqali ko‘rsatiladigan xizmatlardan foydalanish bosqichlari “3 qadam” tamoyili asosida maqbullashtiriladi;

2023-yil 1-dekabr qadar fuqarolar raqamli xizmatlardan mustaqil ravishda foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish maqsadida davlat xizmatlari markazlarida birinchi bosqichda 14 ta “Raqamli xizmat nuqta”lari tashkil etiladi;

2024-yil 1-yanvarga qadar raqamli xizmat va servislar, elektron to‘lovlar, media resurslar imkoniyatini birlashtirishni nazarda tutuvchi Yagona portal orqali xizmatlarni taqdim etishning yangi dasturiy ta’minot shakli joriy etiladi.

3. “Raqamli hukumat” tizimi doirasida:

a) Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan shakllantiriladigan davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirish hamda hududlarni raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha ustuvor loyihalar amaliyotga tatbiq etiladi;

b) qog‘ozsiz ish yuritishga o‘tish jarayonini jadallashtirish maqsadida “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi negizida ishlab chiqilgan “edo.ijro.uz” moduli orqali elektron hujjat aylanish tizimiga:

2023-yil 1-sentabrdan boshlab ijro etuvchi hokimiyatning markaziy apparatlari;

2024-yil 1-maydan boshlab ijro etuvchi hokimiyatning hududiy bo‘linmalari va ular tasarrufidagi tashkilotlar to‘liq o‘tkaziladi.

4. Belgilansinki:

a) 2023-yil 1-avgustdan boshlab davlat organlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir loyihalarni amalga oshirish hisobiga iqtisod qilingan mablag‘larning 50 foizi kelgusi moliya yilida mazkur davlat organlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi;

ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish natijasida iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan loyiha uchun bevosita mas’ul xodimlarni moddiy rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish tavsiya etiladi;

b) 2023-yil 1-sentabrdan boshlab respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari axborot tizimlarida “Raqamli hukumat” tizimining yagona identifikatorlari hamda ma’lumotnomalar

va tasniflagichlar registri axborot tizimida joylashtirilgan yagona umumdavlat ma'lumotnomalar va tasniflagichlardan foydalanishlari shart.

5. 2024-yil 1-yanvardan boshlab Raqamli texnologiyalar vazirligining quyidagi funksiyalari xususiy sektorga o'tkazilsin:

aloqa sohasidagi binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishi uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish;

aloqa sohasidagi mahalliy, shaharlararo va xalqaro tarmoqlarni loyihalashtirish.

6. Belgilab qo'yilsinki, 2023-yil 1-avgustdan boshlab:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan davlat organlari va boshqa budget tashkilotlarining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish uchun mas'ul xodimlariga o'rnatilgan ustamalarga qo'shimcha ravishda tashkilotlarning budgetdan tashqari va ish haqi fondi doirasidagi budget mablag'lari hisobidan lavozim maoshiga nisbatan 20 foiz miqdorda ustama to'lanadi. Bunda, xalqaro sertifikat ro'yxati Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan shakllantiriladi va uning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi;

Raqamli texnologiyalar vazirligining axborot texnologiyalari hamda raqamli xizmatlar joriy etilishi holatini baholash reytingi bilan qamrab olinmagan davlat organlari rahbarlarining raqamlashtirish bo'yicha o'rinbosarlariga ushbu idoralarning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan har oyda mehnatga haq to'lash jamg'armasining 30 foizi miqdorida ustama haq to'lanadi.

7. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2024-yil 1-yanvardan boshlab Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan har yarim yilda inson omilisiz shakllanadigan aholi va tadbirkorlik subyektlarining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi raqamli xizmatlar va servislardan qoniqish darajasi reytingi e'lon qilib boriladi.

8. Raqamli texnologiyalar vazirligi va keng jamoatchilikning 7-may sanasini O'zbekiston Respublikasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi xodimlari kuni deb e'lon qilish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga [6-ilovaga](#) muvofiq qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlari [7-ilovaga](#) muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

11. Raqamli texnologiyalar vazirligi uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

12. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib raqamli texnologiyalar vaziri Sh.X. Shermatov belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2023-yil 24-may,
PF-76-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son [Farmoniga](#)
1-ILOVA

Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari

Quyidagilar Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi:

a) normativ-huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini tashkil etish;

b) raqamli texnologiyalarni joriy etish, telekommunikatsiya va pochta aloqasi sohalari, raqamli iqtisodiyot va raqamli hukumat dasturlarini amalga oshirish, kosmik va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, "davlat — fuqaro" va "davlat — tadbirkor" tamoyili asosida xizmat va

servislarni raqamlashtirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, rivojlantirish va ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

v) respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat hamda xo‘jalik boshqaruvi organlarida axborot tizimlari va resurslarini joriy etish jarayonlarini muvofiqlashtirish;

g) raqamli industriyani rivojlantirish, mazkur sohada texnoparklar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali mahalliy va xorijiy kompaniyalar uchun qulay sharoitlar yaratish;

d) telekommunikatsiya va pochta aloqasi infratuzilmasini boshqarish va ularning samarali ishlashini ta‘minlash hamda telekommunikatsiya sohasida xizmat ko‘rsatish faoliyatini muvofiqlashtirish;

e) telekommunikatsiyalar sohasidagi faoliyatni litsenziyalash, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya va pochta aloqasi xizmatlari sifati va axborot xavfsizligi sohasida davlat nazoratini amalga oshirish hamda ishonchli uchinchi taraf xizmatini ko‘rsatish;

j) radiochastota spektridan foydalanish hamda mobil qurilmalarni ro‘yxatga olishni tartibga solish, axborot xavfsizligi yo‘nalishini rivojlantirish;

z) raqamli texnologiyalar sohasida ta‘limni rivojlantirish, jumladan kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish;

i) yoshlar, ayollar va aholining boshqa qatlamlarining raqamli bilim va ko‘nikmalarini oshirish, mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish;

k) soha, tarmoq va hududlarni raqamlashtirishda ustuvor yo‘nalishlarni ishlab chiqish, sohalar kesimida raqamlashtirish bo‘yicha o‘shish nuqtalarini aniqlash va amalga oshirish lozim bo‘lgan loyihalarni shakllantirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoniga
2-ILOVA

Soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari

Quyidagilar soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

a) aholi, tadbirkorlik subyektlari hamda davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlarni raqamlashtirish, shuningdek, raqamli xizmatlar va servislardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish;

b) davlat idoralari faoliyatini to‘liq raqamlashtirishni ko‘zda tutuvchi “Elektron hukumat” tizimining yangi bosqichi — “Raqamli hukumat” tizimiga o‘tish;

v) axborot tizimlari va resurslari asosida hududlarda zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi “Raqamli hudud” dasturini amalga oshirish;

g) IT-industriya uchun qulay sharoit yaratish orqali mamlakatimizni “IT Xab”ga aylantirish va xizmatlar eksportini oshirish;

d) raqamli texnologiyalar bo‘yicha aholining bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

e) zamonaviy va sifatli raqamli infratuzilmani rivojlantirish;

j) Axborot texnologiyalarini joriy etish va ko‘rsatilayotgan elektron xizmatlar sifati ustidan samarali raqamli nazoratni yo‘lga qo‘yish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoniga
3-ILOVA

Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi tashkilotlarni qayta tashkil etish va nomlash


DASTURI


T/r	Tashkilotning amaldagi to'liq (rasmiy) nomi	Qayta tashkil etilayotgan va nomlanayotgan tashkilotning to'liq (rasmiy) nomi	Qayta tashkil etilayotgan tashkilotning faoliyatiga oid qoidalar va izohlar
1.	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi	Nomi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Raqamli texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi etib o'zgartirilmoqda.	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanilishini ta'minlash maqsadida boshqaruv apparatining amaldagi maqomi saqlab qolinganda uning mablag'larini shakllantirish manbalari, jamg'arma mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari normativ-huquqiy hujjat bilan qayta ko'rib chiqiladi.
2.	"Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasi	Nomi "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasi etib o'zgartirilmoqda.	—
3.	"Aloqaloyiha" davlat unitar korxonasi	Raqamlashtirish vazirligi muassisligidagi "Aloqaloyiha" mas'uliyati cheklangan jamiyati etib qaytatashkil etilmoqda.	Negizida Raqamlashtirish vazirligi muassisligidagi "Aloqaloyiha" mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilib, ustav fondidagi 49 foiz davlat ulushi xususiy lashtiriladi.
4.	"Xabar" gazetasi tahririyati" davlat unitar korxonasi	Raqamlashtirish vazirligi muassisligidagi "Xabar" gazetasi tahririyati" mas'uliyati cheklangan jamiyati etib qaytatashkil etilmoqda.	Negizida "Xabar" gazetasi tahririyati" mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilib, ustav fondidagi 49 foiz davlat ulushi xususiy lashtiriladi.
5.	"UNICON.UZ" fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi" davlat unitar korxonasi	Raqamlashtirish vazirligi muassisligidagi "UNICON.UZ" fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati etib qaytatashkil etilmoqda.	Negizida Raqamlashtirish vazirligi muassisligidagi "UNICON.UZ" fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etiladi.
6.	"Axborot texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi" davlat unitar korxonasi	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi muassisligidagi "Axborot	Negizida Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi muassisligidagi "Axborot

T/r	Tashkilotning amaldagi to'liq (rasmiy) nomi	Qayta tashkil etilayotgan va nomlanayotgan tashkilotning to'liq (rasmiy) nomi	Qayta tashkil etilayotgan tashkilotning faoliyatiga oid qoidalar va izohlar
		texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati etib qaytatashkil etilmoqda.	texnologiyalari va axborot resurslarini rivojlantirish markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etiladi.
7.	"Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazi" davlat unitar korxonasi.	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi muassisligidagi "Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati etib qaytatashkil etilmoqda.	Negizida "Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilib, ustav fondidagi 15 foiz davlat ulushi xususiylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoniga
4-ILOVA

Raqamli texnologiyalar vazirligining tashkiliy tuzilmasi






Izoh: *davlat aksiya paketi (ulushi) bo‘yicha aksiyador (ishtirokchi) funksiyasi Strategik islohotlar agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoniga 4a-ILOVA

Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligining


TASHKILY TUZILMASI



“Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoniga 4b-ILOVA

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiya^{ning} TASHKILY TUZILMASI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoniga 5-ILOVA

Raqamlashtirish sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish muddati	Mas’ul ijrochilar	Moliyalashtirish manbasi	Bajarilgan ishlarning pirovard natijasi
I. Sifatli telekommunikatsiya xizmatini taqdim etish					
1.	Mobil internet foydalanuvchilari sonini oshirish. Bunda: 1) mobil internet bilan qamrab olinmagan aholi maskanlari ro‘yxatini yangi tashkil etilayotgan aholi maskanlarini inobatga olgan xolda qayta ko‘rib chiqish; 2) xizmat ko‘rsatuvchi mobil aloqa operatorlari bilan internet qamrovini	2023-yil sentyabr 2023-yil oktyabr	Raqamli texnologiyalar vazirligi, mobil aloqa operatorlari	Ijrochilar mablag‘lari	Mobil internet foydalanuvchilari soni 3 million 500 ming nafar yetkaziladi. Shuningdek mobil aloqa qamrovi hamda sifati oshirilishi hisobiga aholining mobil internet va ilovalar orqali interaktiv davlat xizmatlari va boshqa onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengaytiriladi.

<p>kengaytirish rejasini tasdiqla❖;</p> <p>3) mobil internet qamrovini kengaytirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;</p> <p>4) mobil aloqa operatorlari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar to'g'risida ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazib borish.</p>	<p>2023-yil davomida</p>			
<p>2. Keng polosali simli internetga ulanish imkoniyati yaratilgan xonadonlar qamrovini oshirish. Bunda:</p> <p>1) simli internet bilan qamrab olinmagan aholi maskanlari ro'yxatini yangi tashkil etilayotgan aholi maskanlarini inobatga olgan holda qayta ko'rib chiqish;</p> <p>2) xizmat ko'rsatuvchi operator va provayderlar bilan simli internet qamrovini kengaytirish rejasini tasdiqlash;</p> <p>3) simli internet qamrovini kengaytirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;</p> <p>4) operator va provayderlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar to'g'risida ma'lumotlarni keng jamoatchilikka yetkazib borish.</p>	<p>2023-yil sentyabr</p> <p>2023-yil oktyabr</p> <p>2023-yil davomida</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, operatorlar va provayderlar</p>	<p>Ijrochilar mablag'lari</p>	<p>Keng polosali simli internetga ulanish imkoniyati yaratilgan xonadonlar qamrovi 75 foizga yetkaziladi. Buning uchun xonadonlar, tadbirkorlik subyektlari va yuridik shaxslarning Internet orqali interaktiv davlat xizmatlarini va boshqa onlayn xizmatlardan foydalanishlari, biznes jarayonlarni va ma'lumotlar almashishni avtomatlashtirish uchun sharoit yaratiladi.</p>
<p>3. Internet tarmog'iga keng polosali ulanishni tashkil etish maqsadida keng polosali portlarning umumiy sonini oshirish. Bunda:</p> <p>1) xizmat ko'rsatuvchi operator va provayderlar bilan keng polosali ulanishni tashkil etish maqsadida portlarni</p>	<p>2023-yil sentyabr</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, operatorlar va provayderlar</p>	<p>Ijrochilar mablag'lari</p>	<p>Internet tarmog'iga keng polosali ulanishni tashkil etish maqsadida keng polosali portlar umumiy soni 5 million mingtaga yetkaziladi.</p>

	<p>oʻrnatish rejasini tasdiqlash;</p> <p>2) keng polosali ulanishni tashkil etish maqsadida oʻrnatiladigan umumiy sigʻimi 700 ming portli qurilma va uskunalarni montaj qilish.</p>	2023-yil davomida			
4.	<p>Telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagilarni nazarda tutgan holda optik tolali aloqa liniyalarini tashkil etish:</p> <p>1) aholiga keng polosali tarmoq xizmatlarini koʻrsatish uchun operator va provayderlar tomonidan qoʻshimcha optik tolali aloqa liniyalarini qurish rejasini tasdiqlash;</p> <p>2) aholi maskanlarida optik tolali aloqa liniyalari qamrovini kengaytirish maqsadida operator va provayderlar tomonidan qoʻshimcha 50 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalarini qurish;</p> <p>3) zamonaviy yuqori tezlikda ishlovchi qurilmalarni oʻrnatib, ishga tushirgan holda aloqa qamrovini 88 foizga yetkazish.</p>	<p>2023-yil sentyabr</p> <p>2023-yil davomida</p> <p>2023-yil dekabr</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, operatorlar va provayderlar</p>	Ijrochilar mablagʻlari	<p>Telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida optik tolali aloqa liniyalarining umumiy uzunligi 220 ming kilometrga yetkazilishi orqali telekommunikatsiya tarmoqlari qamrovioshiriladi.</p>
5.	<p>Xalqaro paketli kommutatsiya markazining oʻtkazuvchanlik qobiliyatini oshirish. Bunda:</p> <p>1) Xalqaro paketli kommutatsiya markazining oʻtkazuvchanlik qobiliyatini kengaytirish yuzasidan amalga oshirilayotgan loyiha doirasida qurilmalarni joylarga yetkazib berish, oʻrnatish ishlari boʻyicha tarmoq grafigini tasdiqlash;</p>	2023-yil oktyabr	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, “Oʻzbektelekom” AK</p>	Ijrochilar mablagʻlari	<p>Xalqaro paketli kommutatsiya markazining oʻtkazuvchanlik qobiliyatini 3,6 Tbit/sekundga yetkazish orqali operator va provayderlarning xalqaro kanallari kengaytiriladi.</p>


	2) Xalqaro paketli kommutatsiya markazining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish.	2023-yil dekabr			
6.	Mobil aloqa tayanch stansiyalarining sonini oshirish. Bunda: 1) xizmat ko'rsatuvchi mobil aloqa operatorlari bilan keng polosali mobil aloqa qamrovini oshirish maqsadida mobil aloqa tayanch stansiyalarini o'rnatish rejasini tasdiqlash; 2) keng polosali mobil aloqa qamrovini oshirish maqsadida o'rnatiladigan 3 mingta tayanch stansiyalari va uskunalari montaj qilish.	2023-yil oktyabr 2023-yil davomida	Raqamli texnologiyalar vazirligi, mobil aloqa operatorlari	Ijrochilar mablag'lari	Mobil aloqa tayanch stansiyalarining jami soni 57 ming taga yetkazish orqali mobil aloqa xizmatlarining qamrovi hamda sifatini yanada yaxshilashga imkoniyat yaratiladi.
7.	Xalqaro ahamiyatga ega magistral avtomobil yo'llari bo'ylab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrovini ta'minlash. Bunda: 1) xizmat ko'rsatuvchi mobil aloqa operatorlari tomonidan xalqaro ahamiyatga ega magistral avtomobil yo'llari bo'ylab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrovi darajasini oshirish maqsadida mobil aloqa tayanch stansiyalarini o'rnatish rejasini tasdiqlash; 2) xalqaro ahamiyatga ega magistral avtomobil yo'llari bo'ylab keng polosali mobil aloqa qamrovini oshirish maqsadida o'rnatiladigan qo'shimcha tayanch stansiyalari va uskunalari montaj qilish.	2023-yil oktyabr 2023-yil davomida	Raqamli texnologiyalar vazirligi, mobil aloqa operatorlari va internet provayderlari	Ijrochilar mablag'lari	Xalqaro ahamiyatga ega magistral avtomobil yo'llari bo'ylab yuqori tezlikdagi mobil internet qamrovi darajasi 80 foiz ga yetkaziladi. Uzunligi 5 108 kilometr bo'lgan xalqaro va davlat ahamiyatiga ega molik avtomobil yo'llari hamda Toshkent-Samarqand-Buxoro yo'nalishidagi uzunligi 108 kilometr bo'lgan temir yo'llar yuqori tezlikdagi mobil internet bilan to'liq qamrab olinadi.
8.	Aholi yashash maskanlarida zamonaviy telekommunikatsiya		Raqamli texnologiyalar vazirligi,	Ijrochilar mablag'lari	146 ta aholi maskanlarida telekommunikatsiya

	<p>xizmatlari qamrovini oshirish. Bunda:</p> <p>1) keng polosali internet qamrovi qoniqarli bo‘lmagan 146 ta aholi maskanlarini o‘rganish bo‘yicha hududlar kesimida tarmoq grafigini tasdiqlash;</p> <p>2) tasdiqlangan tarmoq grafigiga asosan aholi maskanlarini telekommunikatsiya xizmati bilan ta‘minlash.</p>	2023-yil davomida	Adliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahri va viloyatlar hokimliklari, mobil aloqa operatorlari va internet provayderlari		xizmatlari qamrovini oshirish choralari ko‘riladi.
9.	Respublika hududlarida (Toshkent, Buxoro va Farg‘ona viloyatlarida) ma‘lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlarini tashkil etish.	2024-2025-yillar	Raqamli texnologiyalar vazirligi, “O‘zbektelekom” AK	Ijrochilar mablag‘lari	Ma‘lumotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasi rivojlantiriladi.
II. “Raqamli fuqaro” tamoyili asosida aholiga sifatli raqamli davlat xizmatlarini taqdim etish					
10.	<p>Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda — Yagona portal) hamda uning mobil ilovasining foydalanuvchilar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish, qayta aloqa qilish, shuningdek, imkoniyati cheklangan insonlar uchun xizmatlardan foydalanish jarayonlarini yengillashtirish va boshqa qo‘shimcha imkoniyatlarni nazarda tutuvchi yangi talqinini ishlab chiqish. Bunda:</p> <p>1) Yagona portalning yangi talqinini sinov tarzida ishga tushirish, uni vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish reja-jadvalini tasdiqlash;</p> <p>2) Yagona portal va uning mobil ilovasining yangi talqinini ishga tushirish.</p>	<p>2023-yil dekabr</p> <p>2024-yil may</p>	Raqamli texnologiyalar vazirligi, “Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasi	Ijrochilar mablag‘lari	Yagona portal hamda uning mobil ilovasining yangi talqinini ishga tushiriladi va joriy etilgan xizmatlardan imkoniyat cheklangan insonlar va aholining boshqa qatlamlari uchun foydalanishda sodda va tushunarli ko‘rinishda taqdim etish yo‘lga qo‘yiladi.
11.	Raqamli xizmatlarni aholiga qulay holda			Ijrochilar mablag‘lari	Raqamli xizmatlar aholiga qulay holda

	<p>foydalanish uchun maqbullashtirish. Bunda:</p> <p>1) yagona portalda joriy etilgan raqamli xizmatlarni xatlovdan o'tkazish va foydalanish bosqichlari 3 ta qadamdan ortiq bo'lgan xizmatlar bo'yicha ("Digital by default" tamoyili asosida) ma'muriy jarayonlarni maqbullashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va Raqamli texnologiyalar vazirligiga kiritish;</p> <p>2) takliflar asosida ma'muriy jarayonlari maqbullashtiriladigan xizmatlar bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>har yili 20-dekabrga qadar</p> <p>har yili 10-fevralga qada</p>	<p>Davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi vazirlik va idoralar</p> <p>Adliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi</p>		<p>foydalanish uchun maqbullashtirilib, xizmat ko'rsatuvchi vazirlik va idoralar tomonidan "3 qadam" tamoyili asosida xizmat ko'rsatishga o'tiladi.</p>
12.	<p>Aholining ayrim hujjatlari amal qilish muddati tugayotgani, qarzdorlik va jarimalar mavjudligi hamda amalga oshirish zarur bo'lgan eslatmalar haqida xabardor qilishni yo'lga qo'yish. Bunda:</p> <p>1) "Raqamli hukumat" xizmatlari haqida axborot berish va xabardor qilish tizimiga integratsiya qilish bo'yicha texnologik yo'riqnoma ishlab chiqish va tasdiqlash;</p> <p>2) belgilangan tartibda tasdiqlangan texnologik yo'riqnoma asosida axborot tizimlarini integratsiya qilish.</p>	<p>2023-yil avgust</p> <p>Reja-jadval asosida</p>	<p><i>O'ziga tegishli qismida barchasi asosiy ijrochi</i> "O'zsuvtamot" AJ Ichki ishlar vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Adliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ</p>	-	<p>Aholining ayrim hujjatlari amal qilish muddati tugayotgani, qarzdorlik va jarimalar mavjudligi va boshqa eslatmalar haqida xabardor qilish mexanizmi joriy etiladi.</p>
13.	<p>Ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan aholi va tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan raqamli xizmatlar bo'yicha 26 ta axborot tizimlarini Yagona portalga birlashtirgan holda</p>		<p><i>O'ziga tegishli qismida barchasi asosiy ijrochi</i> Iqtisodiyot va moliya vazirligi,</p>	<p>Ijrochilar mablag'lari</p>	<p>Vazirliklar tomonidan aholi va tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan Raqamli xizmatlar bo'yicha 26 ta axborot tizimi (my.soliq.uz, singlewindows.uz,</p>

	<p>Yagona portalni barcha raqamli xizmatlar va servislarni ko'rsatish va ularning natijasini olishning yagona nuqtasi etib belgilash. Bunda:</p> <p>1) aholi va tadbirkorlik subyektlariga raqamli xizmatlar ko'rsatilayotgan nuqtalarda (veb-sayt, portal, platforma va boshqalar) mavjud xizmatlarni tahlil qilish va ularning ro'yxatini Raqamli texnologiyalar vazirligiga kiritish;</p> <p>2) raqamli xizmatlarni qo'shimcha tarzda Yagona portalda joriy etish hamda zaruratga ko'ra mavjud normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan loyihalarni ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash uchun kiritish.</p>	<p>2023-yil avgust</p> <p>2023-yil dekabr</p>	<p>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Transport vazirligi, Madaniyat va turizm vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Tabiat resurslari vazirligi, "O'zdonmahsulot" AJ, Avtomobil yo'llari qo'mitasi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, "O'zarxiv" agentligi, Kinematografiya agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, "O'zbekkonsert" davlat muassasasi, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ</p>		<p>magistr.edu.uz va boshqalar)ni Yagona da xizmatlari portaliga birlashtiriladi.</p> <p>Bunda, Yagona port barcha raqamli xizmat va servislarni ko'rsatis ularning natijasini olish uchun yagona foydalan nuqtasi etib belgilanad</p>
14.	Yagona portalda xizmatlardan foydalanish jarayonini onlayn tarzda monitoring qilish. Bunda:		Raqamli texnologiyalar vazirligi,	Ijrochilar mablag'lari	Yagona portalda xizmatlardan foydalanish jarayonidagi kamchilik va muammolar yuzasid

	<p>1) Yagona portalda joriy etilgan xizmatlardan foydalanish jarayoning barcha bosqichlarida kelib chiqadigan kamchiliklar va muammolar bo'yicha foydalanuvchilardan shikoyatlarni qabul qilish yuzasidan portalni takomillashtirish;</p> <p>2) Yagona portalda xizmatlar ko'rsatishdagi kamchiliklarni aniqlash va portalni takomillashtirish maqsadida foydalanuvchilar bilan real vaqt rejimida qayta aloqani yo'lga qo'yish;</p> <p>3) faol foydalanuvchilarni rag'batlantirishni yo'lga qo'yish.</p>	<p>2024-yil fevral</p> <p>2024-2025-yillar</p>	<p>davlat xizmatlarni ko'rsatuvchi vazirlik va idoralar</p>	<p>foydalanuvchilardan shikoyatlarni onlayn tarzda qabul qilish hamda faol foydalanuvchilarni rag'batlantirish yo'lga qo'yiladi.</p>	
15.	<p>Fuqarolar raqamli xizmatlardan mustaqil ravishda foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish maqsadida davlat xizmatlari markazlarida birinchi bosqichda 14 ta raqamli xizmatlar nuqtalari tashkil etish. Bunda:</p> <p>Bunda:</p> <p>1) davlat xizmatlari markazlarida raqamli xizmatlar nuqtalari uchun joylarni aniqlab zarur infratuzilma bilan ta'minlash;</p> <p>2) raqamli xizmatlar nuqtalari faoliyatini yo'lga qo'yish;</p> <p>3) "Raqamli hukumat" tizimi foydalanuvchilari uchun tunu-kun ishlaydigan Call-markaz xizmatini ishga tushirish.</p>	<p>2023-yil dekabr</p> <p>2024-yil may</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, Adliya vazirligi</p>	<p>Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi</p>	<p>Joylarda fuqarolar raqamli davlat xizmatlaridan mustaqil ravishda foydalanadigan ta raqamli xizmatlar nuqtalari tashkil etiladi.</p>
16.	<p>Vazirlik va idoralar tomonidan bir birini takrorlovchi funksiyalarga ega billing tizimlari ishlab</p>		<p><i>O'ziga tegishli qismida barchasi asosiy ijrochi</i></p>	<p>-</p>	<p>Davlat organlari va idoralarida davlat boji, yig'imlar, jarima va boshqa to'lovlarni amalga</p>

	<p>chiqilishini oldini olish hamda ushbu maqsadlarga yo'naltirilayotgan mablag'larni maqbullashtirish maqsadida barcha xizmatlarni majburiy ravishda "Raqamli hukumat"ning yagona billing tizimiga ulash.</p> <p>Bunda, "Raqamli hukumat"ning yagona billing tizimiga integratsiya qilish bo'yicha texnologik yo'riqnomani belgilangan tartibda ishlab chiqish va axborot tizimlarini integratsiya qilish.</p>	2023-yil oktyabr	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi</p>		<p>oshirishni raqamli ko'rinishga o'tkazish orqali aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarni raqamli ko'rinishda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.</p>
17.	<p>Ko'chmas mulkdan tekin foydalanish shartnomasi, er-xotinning umumiy mol-mulki to'g'risidagi guvoohnoma, sudda qatnashish uchun ishonchnoma, avtotransport oldi-sotdi shartnomasi  rasmiylashtirish uchun ariza berish kabi 8 turdagi notarial harakatlarni onlayn shaklga o'tkazish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.</p>	2023-yil sentyabr	<p>Adliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi</p>		<p>Onlayn shaklga o'tkaziladigan 8 turdagi notarial harakatlarni aniqlanadi va rejalar belgilab olinadi.</p>
III. Raqamli hukumat tizimini rivojlantirish					
18.	<p>"Raqamli hukumat" tizimining raqamli ma'lumotlar platformasi orqali ma'lumotlar almashuvini yagona nuqtada tizimlashtirish. Bunda:</p> <p>1) davlat axborot tizim va resurslari ma'lumotlarini davlat organi va tashkiloti bo'lmagan uchinchi shaxslarning axborot tizimlariga to'g'ridan-to'g'ri integratsiya qilinishi holati bo'yicha xatlov o'tkazish va ma'lumotlarni</p>	2023-yil dekabr	<p>Vazirlik va idoralar tegishliligi bo'yicha</p>	-	<p>"Raqamli hukumat" tizimining raqamli ma'lumotlar platformasi orqali davlat organlari va tashkilotlari hamda xususiy sektor o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi yagona nuqtada tizimlashtiriladi.</p>

<p>Raqamli texnologiyalar vazirligiga kiritish;</p> <p>2) davlat organi va tashkiloti bo‘lmagan uchinchi shaxslarning axborot tizimlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etilayotgan ma’lumotlarni “Raqamli hukumat” tizimining raqamli ma’lumotlar platformasi “digitaldata.uz”ga taqdim etish bo‘yicha texnologik yo‘riqnoma ishlab chiqish va tasdiqlash;</p> <p>3) texnologik yo‘riqnoma asosida raqamli ma’lumotlar platformasi “digitaldata.uz”ga ma’lumotlarni taqdim etishni yo‘lga qo‘yish hamda davlat axborot tizimlari va resurslari ma’lumotlarining davlat organi va tashkiloti bo‘lmagan uchinchi shaxslarning axborot tizimlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri integratsiya qilinishini bosqichma-bosqich to‘xtatish.</p>	<p>2024-yil yanvar</p> <p>2023-2024-yillar</p>			
<p>19. “Raqamli hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasiga taqdim etilayotgan jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli ma’lumotlarga o‘zgartirishlar (F.I.Sh., pasport ma’lumotlari, hisob varaqlari, kadastr raqami, egalik huquqi, taqiq va boshqalar) kiritilganda inson omilisiz real vaqt rejimida yangilanishini yo‘lga qo‘yish. Bunda:</p> <p>1) idoralararo integratsiyalashuv platformasiga ulanish bo‘yicha texnologik</p>	<p>2023-yil avgust — oktyabr</p>	<p>Barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy bo‘linmalari, shuningdek, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonlari (keyingi o‘rinlarda</p>	<p>-</p>	<p>“Raqamli hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasiga taqdim etilayotgan ma’lumotlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritilganda inson omilisiz real vaqt rejimida yangi imkoni yaratiladi.</p>

	<p>yo'riqnomalarga qo'shimchalar kiritish va belgilangan tartibda tasdiqlash;</p> <p>2) idoralararo integratsiyalashuv platformasiga taqdim etilayotgan ma'lumotlarga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan holda avtomat tarzda ma'lumot (<i>PUSN-servis</i>) yuborilishini yo'lga qo'yish.</p>	<p>2023-yil dekabr dan boshlab doimiy</p>	<p>— davlat organlari va tashkilotlari)</p>		
20.	<p>Yagona portal orqali foydalanilgan xizmatlar natijasida taqdim etilgan hujjat va ma'lumotlarni hamda axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish orqali olinayotgan hujjatlarni (<i>tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan</i>) fuqarolar va tadbirkorlik subyektlaridan talab qilish amaliyotini bekor qilish. Bunda:</p> <p>1) fuqaro va tadbirkorlik subyektlaridan talab etiladigan hujjatlarni xatlovdan o'tkazish va talab etish zarurati bo'lmagan hujjatlar ro'yxatini belgilash;</p> <p>2) talab etish zarurati bo'lmagan hujjatlarni talab etish amaliyotini bekor qilish.</p>	<p>2023-yil sentyabr</p> <p>2023-yil noyabr</p>	<p>Davlat organlari va tashkilotlari</p>	<p>-</p>	<p>Yagona portal orqali raqamli xizmatlarning natijasi hisoblanadigan hujjatlarni (ma'lumot, ma'lumotnoma va boshqalar) hamda axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish orqali raqamli tarzda olinayotgan hujjatlarni fuqarolar va tadbirkorlik subyektlaridan talab qilish amaliyoti bekor qilinadi va aholining ortiqcha ovoragarchiligi yo'l qo'yilmaydi.</p>
21.	<p>Raqamli ma'lumotlar bazalarini o'z vaqtida va sifatli shakllantirish, ma'lumotlarni raqamlashtirish, ma'lumotlar hamda raqamli ko'rinishdagi hujjatlarni muddatida berish yuzasidan shaxsiy javobgarlikni belgilash. Bunda:</p> <p>1) aholi, tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari uchun zarur</p>	<p>Doimiy ravishda</p>	<p>Davlat organlari va tashkilotlari</p>	<p>Ijrochilar mablag'lari</p>	<p>Vazirlik va idoralar rahbarlari zimmasiga ma'lumot bazalarini o'z vaqtida va sifatli shakllantirish, ma'lumotlarni raqamlashtirish, ma'lumotlar hamda raqamli ko'rinishdagi hujjatlarni muddatida ta'minlash yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklanadi.</p>

<p>bo‘lgan ma’lumotlarni doimiy ravishda raqamlashtirish ishlarini olib borish;</p> <p>2) raqamli ma’lumotlar bazalarini va ularning zaxira nusxalarini shakllantirish;</p> <p>3) raqamli ma’lumotlar bazalaridagi ma’lumotlarni Idoralararo integratsiyalashuv platformasiga doimiy asosda taqdim etish;</p> <p>4) axborot tizimlarida profilaktik tadbirlar haqida kamida 3 kun oldin Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazini ogohlantirishni tizimini yo‘lga qo‘yish.</p>	<p>2023-yil avgustdan doimiy</p> <p>Doimiy ravishda</p> <p>2023-yil oktyabrdan doimiy</p>			
<p>22. Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari markaziy apparatlari, hududiy bo‘linmalari, tizim tashkilotlari va ularning hududiy bo‘linmalarida hujjatlar almashinuvini “qog‘ozsiz ish yuritish” tamoyili asosida amalga oshirish. Bunda:</p> <p>1) “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimining takomillashtirilgan talqini “edo.ijro.uz” elektron hujjat aylanish moduliga ulash;</p> <p>2) “edo.ijro.uz” elektron hujjat aylanish moduli orqali qabul qilingan barcha turdagi buyruq, qaror va farmoyishlarni “E-qaror” elektron tizimi orqali e’lon qilib borish amaliyotini yo‘lga qo‘yish. Bunda, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining barcha turdagi ichki hujjatlari (xatlar, murojaatlar, bayonlar, buyruqlar, qaror</p>	<p>2023-yil sentyabrdan boshlab</p> <p>2023-yil sentyabrdan boshlab doimiy</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, davlat organlari va tashkilotlari</p> <p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari</p>	<p>-</p>	<p>Barcha davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasida hujjatlar almashinuvini hamda o‘zaro yozishma ichki raqamli hujjat almashinuv tizimlarini “Raqamli hukumat” tizimi bilan integratsiya qilgan holda “qog‘ozsiz ish yuritish” tamoyili asosida amalga oshiriladi.</p>

	<p>va farmoyishlar) “edo.ijro.uz” elektron hujjat aylanish moduli orqali ishlab chiqiladi va imzolanadi;</p> <p>3) raqamli ish joyi — “Digital office” tizimi va davlat xizmatchilarining o‘zaro yozishmalari uchun mo‘ljallangan himoyalangan milliy messenjerni joriy etish. Bunda, “Digital office” tizimi doirasida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining barcha xodimlari uchun profil yaratish;</p> <p>4) xodimlar haqida ma’lumotlar, lavozimlar va bog‘lanish ma’lumotlari aktualligini ta’minlash maqsadida “Digital office” tizimini “hrm.argos.uz” axborot tizimi bilan integratsiya qilish;</p> <p>5) “Ijro.gov.uz” tizimida davlat organlari va tashkilotlari majlis va yig‘ilishlarini o‘tkazish modulini ishga tushirish;</p> <p>6) “edo.ijro.uz” va “hrm.argos.uz” tizimlarini o‘zaro integratsiya qilish va tasdiqlangan hujjatlarni tizimlarda aks ettirish;</p> <p>7) elektron hujjat aylanish tizimlarini respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarida yuritishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2023-2024-yillar davomida</p> <p>2023-yil dekabr</p> <p>2023-yil dekabr</p> <p>2023-yil dekabr</p> <p>2024-yil aprel</p>			
23.	<p>“Ijro.gov.uz” ijro intizomi tizimini yanada takomillashtirish. Bunda:</p> <p>1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi uchun</p>	2023-yil davomida	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>	<p>Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari</p>	<p>“Ijro.gov.uz” tizimining mobil ilovas messenjери va yangi modullarini yaratish orqali tizimdan foydalanish imkoniyatlari</p>

	<p>monitoring, Vazirlar Mahkamasi va Adliya vazirligi uchun kelishish, monitoring va nazorat, Hisob palatasi uchun monitoring va nazorat, markaziy muassasalar, vazirlik va idoralar uchun topshiriqlarni ijro etish va boshqa qo‘shimcha modullarni yaratish;</p> <p>2) tizimning himoyalangan messenger (messenger.ijro.uz) modulini ishlab chiqish va ishga tushirish;</p> <p>3) tizimning mobil ilovasini yaratish va ishga tushirish.</p>				<p>kengaytiriladi hamda qo‘shimcha funksiyalar amalga oshirish imkoniyatlari yaratiladi.</p> <p>Shuningdek, har bir vazifa va topshiriqlarni o‘z vaqtida sifatli bajarilishi ustidan samarali nazorat va monitoring qilish, ijro hujjatlarini kelishish yo‘lga qo‘yiladi.</p>
24.	<p>“Ishonchli uchinchi taraf” tamoyili asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida berilgan raqamli imzo bilan tasdiqlangan raqamli hujjatlarning haqiqiylikini tasdiqlash imkonini beruvchi “Yagona raqamli hujjatlar” ma’lumotlar bazasini yuritish. Bunda:</p> <p>1) normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish;</p> <p>2) “Yagona raqamli hujjatlar” ma’lumotlar bazasini joriy etish.</p>	<p>2024-yil mart</p> <p>2024-yil iyul</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>	-	<p>“Ishonchli uchinchi taraf” tamoyili asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida berilgan raqamli imzo bilan tasdiqlangan raqamli hujjatlarning haqiqiylikini tasdiqlash imkonini beruvchi “Yagona raqamli hujjatlar” ma’lumotlar bazasi yaratiladi va uni yuritish tartibi belgilanadi.</p> <p>Bunda, “Raqamli hukumat” tizimining ma’lumotlarni qayta ishlash markazida saqlanayotgan hujjatlar jumladan arxiv hujjatlarini “Ishonchli uchinchi taraf” tamoyili asosida tasdiqlash vazifasi Raqamli texnologiyalar vazirligi zimmasiga yuklanadi.</p>
25.	<p>O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonunini so‘nggi yillarda amalga oshirilgan o‘zgarishlarni inobatga olgan holda takomillashtirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.</p>	<p>2023-yil dekabr</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>	-	<p>Quyidagilarni nazarda tutgan holda takliflar ishlab chiqiladi:</p> <p>xizmat va servislarni to‘liq raqamli va proaktiv shaklda ko‘rsatish;</p> <p>“Raqamli hukumat” tizimining yangi arxitekturasi va</p>

					<p>infratuzilmasini belgila va samarali boshqarish; “Raqamli hukumat” loyihalarini barqaror moliyalashtirish manbalarini belgilash; idoralararo, aholi va tijorat tashkilotlari o’rtasidagi axborot almashinuvi va hamkorlik tartibini belgilash; raqamli xizmatlar ko’rsatish va ularning natijasini olishning yagona nuqtasini belgilash.</p>
26.	<p>Quyidagilarni nazarda tutgan holda, barcha davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlarining “Raqamli hukumat” tizimiga integratsiya qilinishiga faqatgina “Raqamli hukumat” tizimining yagona identifikatorlari hamda ma’lumotnomalar va tasniflagichlar registri axborot tizimida joylashtirilgan yagona umumdavlat ma’lumotnomalar va tasniflagichlardan foydalanilganidagina yo’l qo’yish:</p> <p>1) vazirlik va idoralar tomonidan o’zlarining faoliyatiga doir barcha turdagi ma’lumotnomalar va tasniflagichlarni xatlovdan o’tkazish, ularni joylashtirish va yuritishga mas’ul bo’lgan xodimlarni belgilagan holda Raqamli texnologiyalar vazirligiga kiritish;</p> <p>2) xatlov natijalariga ko’ra aniqlangan hamda Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishilgan tegishli ma’lumotnomalar va tasniflagichlarni “Raqamli hukumat”ning</p>	<p>2023-yil dekabr</p> <p>2024-yil martdan boshlab doimiy</p>	<p><i>O’ziga tegishli qismida barchasi asosiy ijrochi Statistika agentligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Kambag’allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Qishloq xo’jaligi vazirligi, Suv xo’jaligi vazirligi, Energetika vazirligi, Tog’-kon sanoati va geologiya vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Sog’liqni saqlash vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi,</i></p>	-	<p>Barcha davlat organlari va tashkilotlari axborot tizimlarining “Raqamli hukumat” tizimiga integratsiya qilinishiga faqatgina “Raqamli hukumat” tizimining yagona identifikatorlari hamda ma’lumotnomalar va tasniflagichlar registri axborot tizimida joylashtirilgan yagona umumdavlat ma’lumotnomalar va tasniflagichlardan foydalanilganidagina yo’l qo’yiladi.</p> <p>Bunda, boshqa turdagi ma’lumotnomalar va tasniflagichlar qo’llanilgan taqdirda, davlat organlari ularni “Raqamli hukumat” tizimining ma’lumotnomalar va tasniflagichlar registri axborot tizimida joylashtiradi va muntazam ravishda yangilab boradi.</p>

	<p>ma'lumotnomalar va klassifikatorlar registriga joylashtirish va veb-xizmat orqali muntazam ravishda yangilab borish.</p>		<p>Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi Tashqi ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Transport vazirligi, Madaniyat va turizm vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Tabiat resurslari vazirligi, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi</p>		
27.	<p>Har yili kelgusi yil uchun raqamlashtirish dasturlarini ishlab chiqish. Bunda:</p> <p>1) raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini quyidagi yo'nalishlarda joriy etish dasturlarini, aniq hisob-kitoblar asosida ularga sarflanadigan xarajatlarni asoslovchi hujjatlarni (texnik va moliyaviy hujjatlar) ishlab chiqish va kelishish uchun Raqamli texnologiyalar vazirligiga kiritish:</p> <p>axborot tizimlari va resurslarini ishlab chiqish va joriy etish; raqamli xizmatlarni joriy etish; raqamli infratuzilmani rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta'minlash;</p>	<p>Har yili aprel</p>	<p>Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari</p>	<p>-</p>	<p>Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan har yili kelgusi yil uchun raqamlashtirish dasturlari shu yil uchun dolzarb masalalar bilan qamrab olinadi va idora o'rtasidagi raqamli tafovut kamaytirilishi erishiladi.</p>

	<p>raqamli texnologiyalar yoʻnalishida xodimlarning bilim va koʻnikmasini oshirish;</p> <p>2) Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda raqamlashtirish dasturini tasdiqlash;</p> <p>3) raqamlashtirish dasturiga kiritilgan tadbirlarni kelgusi yil uchun shakllantiriladigan Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutish uchun kelgusi yil uchun budget buyurtmasini asoslangan hisob-kitoblar bilan taqdim etish.</p>	<p>Har yili iyun</p> <p>Har yili iyul-avgust oylarida</p>			
29.	<p>Barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy boʻlinmalari (keyingi oʻrinlarda — davlat organlari)da raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir loyihalarni amalga oshirish hisobiga iqtisod qilingan mablagʻlarning 50 foizini kelgusida mazkur ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga yoʻnaltirish. Bunda:</p> <p>1) davlat organlarida raqamlashtirish hisobiga iqtisod qilingan mablagʻlarni hisob-kitob qilish;</p> <p>2) ushbu iqtisod qilingan mablagʻlarning 50 foizini IT-sohasini rivojlantirishga yoʻnaltirish uchun davlat organlariga kelgusi moliya yilida qaytarib berishni Davlat</p>	<p>◆ar yili iyun oyida</p> <p>Har yili avgust oyida</p>	Davlat organlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi	-	Raqamlashtirish hisobiga iqtisod qilingan mablagʻlarning 50 foizi IT-sohasini rivojlantirish uchun davlat organlariga kelgusi moliya yili mobaynida qaytarib berilgan mablagʻlarni yoʻlga qoʻyiladi.

	<p>budjeti parametrlarida inobatga olish;</p> <p>3) davlat organlari tomonidan Davlat budjetidan qaytarib berilgan mablagʻlarning IT-sohasini rivojlantirishga maqsadli yoʻnaltirilishini taʼminlash.</p>	<p>Yil davomida</p>			
30.	<p>Byurokratik toʻsiqlarga chek qoʻyish hamda inson omilini qisqartirish maqsadida vazirlik va idoralarning kadrlar bilan ishlash yoʻnalishidagi faoliyatini yagona avtomatlashtirilgan tizim “hrm.argos.uz” platformasi orqali yuritish. Bunda platforma orqali quyidagilar amalga oshiriladi:</p> <p>tarkibiy tuzilma, shtatlar, lavozimlar va xodimlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni yagona elektron bazaga jamlagan holda axborotni toʻplash va unga ishlov berish;</p> <p>“hrm.argos.uz” va “edo.ijro.uz” axborot tizimlarining oʻzaro integratsiyasini taʼminlagan holda kadrlarga oid ish yurituv hujjatlarini elektron shaklda yuritish;</p> <p>xodimlarning ish faoliyati samaradorligini avtomatik baholash;</p> <p>kadrlar boʻyicha maʼlumotlarning elektron arxivini yuritish.</p>	<p>2023-yil avgust</p>	<p>Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, “Uzinfocom” davlat axborot tizimlarini yaratish va qoʻllab-quvvatlash boʻyicha yagona integrator” MChJ</p>	<p>-</p>	<p>Vazirlik va idoralarning kadrlar bilan ishlash faoliyati toʻliq raqamlashtiriladi.</p>
31.	<p>Tizimlarni oʻzaro integratsiya qilgan holda “hrm.argos.uz” tizimi orqali “UzASBO” dasturiy majmuasi, “E-qaror” tizimi va “E-huquqshunos” tizimlariga maʼlumot kiritish imkoniyatini yaratish. Bunda:</p>		<p>Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi, “Uzinfocom” davlat axborot tizimlarini yaratish</p>	<p>-</p>	<p>“hrm.argos.uz” tizimi orqali zarur maʼlumotlarni raqamli tarzda olish imkoniyati yaratiladi.</p>

	<p>1) texnologik yo‘riqnoma loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash;</p> <p>2) tizimlarining o‘zaro integratsiyasini amalga oshirish.</p>	<p>2023-yil iyul</p> <p>2023-yil oktyabr</p>	<p>va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yagona integrator” MChJ</p>		
32.	<p>Amaliyotdagi ijobiy tajribalarni inobatga olgan holda lavozimlar va xodimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash va ularga ishlov berish, kadrlarga oid ish yurituv hujjatlarini, shu jumladan “edo.ijro.uz” axborot tizimi bilan elektron hamkorlik orqali zarur ma‘lumotlarni olgan holda “hrm.argos.uz” tizimida yuritish tartibi loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	2023-yil iyul	<p>Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>	-	<p>Inson resurslarini boshqarishga qaratilgan elektron dastur — “hrm.argos.uz” platformasi amaliyotda kelib chiqqan holda yan takomillashtiriladi.</p>
33.	<p>Magistral gaz quvurlarini raqamlashtirish bo‘yicha takliflar kiritish. Bunda:</p> <p>1) magistr al gaz quvurlarining raqamlashtirilganlik darajasini o‘rganish;</p> <p>2) gaz quvurlaridagi yo‘qotishlarni kamaytirish bo‘yicha raqamlashtirish jarayonini takomillashtirish yuzasidan aniq takliflar shakllantirish va “yo‘l xaritasi” shaklida Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	2023-yil avgust	<p>“O‘ztransgaz” AJ</p>	-	<p>Magistral gaz quvurlarini raqamlashtirish bo‘yicha takliflar kiritiladi.</p>
34.	<p>Sog‘liqni saqlash tizimidagi axborot tizimlarini o‘zaro integratsiya qilishga sharoit yaratish uchun xalqaro tajriba asosida zarur bo‘lgan standartlar, klassifikator va ma‘lumotnomalar hamda nomenklaturalarni ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda:</p>		<p>Sog‘liqni saqlash vazirligi</p>	<p>Xalqaro moliya institutlari mablag‘lari</p>	<p>Sog‘liqni saqlash tizimidagi axborot tizimlarida qo‘llaniladigan yagona standartlar, klassifikator va ma‘lumotnomalar hamda nomenklaturalar shakllantiriladi.</p>

	<p>1) jahon standartlari va klassifikatorlarni o'rganish;</p> <p>2) o'rganish natijasi bo'yicha milliy standartlari va klassifikatorlarni ishlab chiqish;</p> <p>3) ishlab chiqilgan standartlar va klassifikatorlarni "Raqamli hukumat"ning ma'lumotnomalar va tasniflagichlar registriga joylash;</p>	<p>2023-yil iyul</p> <p>2023-yil oktyabr</p> <p>2023-yil dekabr</p>			
35.	<p>Ichki ishlar vazirligining "E-ma'muriy ish" axborot tizimi bilan Bosh prokuraturaning "E-material" dasturiy ta'minotini o'zaro integratsiya qilish.</p> <p>"E-ma'muriy ish" axborot tizimini "Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasiga integratsiya qilish.</p>	2023-yil sentyabr	Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura	Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar va budjetdan tashqari mablag'lar	Davlat organlari axb tizimlari o'rtasida idoralararo elektron hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ortiqcha sarsong rchil va xarajatlar oldi olinad
36.	<p>"Raqamli geologiya" tizimini yaratish doirasida elektron geologik ma'lumotlar bazasini shakllantirish va zamonaviy dasturiy ta'minotlarda foydalanishni ta'minlash. Bunda:</p> <p>1) raqamli ko'rinishga o'tkaziladigan ma'lumotlar ro'yxatini tuzish va tegishli uskunalar bilan ta'minlash;</p> <p>2) raqamli geologik axborot resurslarini shakllantirish bo'yicha texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish va amaliyotga joriy etgan holda samarali foydalanishni yo'lga qo'yish.</p>	<p>2023-yil avgust</p> <p>2023-yil noyabr</p>	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi	Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar va budjetdan tashqari mablag'lar	Ishonchli va sifatli elektron geologik ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.
37.	Raqamli geologik axborotlardan foydalanish			Davlat budjetidan ajratilgan	Raqamli baza shakllantirilishi natijasi

	<p>imkoniyatlarini oshirish, uning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida davlat geologiya fondini raqamli bazaga o'tkazish. Bunda:</p> <p>1) geologik hisobotlar xatlovini yakunlash va ustuvor raqamli asosga o'tkaziladigan manbalar ro'yxatini shakllantirish;</p> <p>2) ro'yxat asosida geologik hisobotlarni raqamli ko'rinishga o'tkazish bo'yicha tegishli texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p>	<p>2023-yil avgust</p> <p>2023-yil dekabr</p>	<p>Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi</p>	<p>mablag'lar va budjetdan tashqari mablag'lar</p>	<p>geologik hisobotlarni elektron shaklda yuritish yo'lga qo'yiladi.</p>
38.	<p>Geologiya sohasidagi davlat kadastrlari hamda foydali qazilmalar bo'yicha davlat balansini yuritish jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish. Bunda:</p> <p>1) geologiya sohasidagi davlat kadastrlari va foydali qazilmalar bo'yicha davlat balansini yuritish jarayonini tahlil qilish;</p> <p>2) tahlil natijasida ushbu jarayonlarni axborot tizimlarini joriy etish orqali takomillashtirish choralari ko'rish.</p>	<p>2023-yil avgust</p> <p>2023-yil dekabr</p>	<p>Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi</p>	<p>Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar va budjetdan tashqari mablag'lar</p>	<p>Geologiya sohasidagi davlat kadastrlari hamda foydali qazilmalar bo'yicha davlat balansining doimiy onlayn ma'lumotlari shakllantiriladi.</p>
39.	<p>Qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirish maqsadida "E-IJARA" axborot tizimi imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish. Bunda:</p> <p>1) tizim orqali aholiga 96,6 ming gektar yer maydonlarini 400 mingdan ortiq dehqon xo'jaligini tashkil etish maqsadida ochiq elektron tanlov orqali ajratish, hisobotlar va texnik imkoniyatlarni takomillashtirish;</p> <p>2) yerlarni aholiga, jumladan, ehtiyojmand</p>	<p>2023-yil avgust</p> <p>2023-yil dekabr</p>	<p>Qishloq xo'jaligi vazirligi</p>	<p>Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar va budjetdan tashqari mablag'lar</p>	<p>Qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirish imkoniyati kengayadi.</p>

	oilalarga ajratishda shaffoflikni oshirish, idoralarga yagona va aniq ma'lumotlarni taqdim etishni yo'lga qo'yish; 3) vazirlikning huddiy bo'linmalari va Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligida tizim yordamida samarali ishlashni tashkil etish.	Doimiy			
40.	Toshkent davlat agrar universitetining (TDAU) Samarqand filialida talabalar va yosh olimlarning startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha Inkubatsiya markazini tashkil etish. Bunda: 1. TDAU Samarqand filialida Inkubatsiya markazini tashkil etish uchun zarur maydonlarni ajratish, zaonaviy uslubda ta'mirlash; 2. Inkubatsiya markazi faoliyatini tashkil etish uchun zarur kompyuter, kommunikatsiya texnikalari va boshqa vositalar bilan jihozlash; 3. Inkubatsiya markazi faoliyatini yo'lga qo'yish.	2023-yil avgust 2023-yil oktyabr 2023-yil dekabr	Qishloq xo'jaligi vazirligi	Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar va budjetdan tashqari mablag'lar	Talabalarning startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash va hayotga joriy etish bo'yicha ishlar jadallashadi.
IV. "Raqamli hudud" loyihagini amalga oshirish					
41.	"Raqamli Toshkent" tajribasini Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda joriy etish. Bunda: 1) "Xalq nazorati" portalini joriy etish, shuningdek, u orqali kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish muddatlari hamda ularga mas'ul bo'lgan vazirlik va idoralar, shu jumladan, ularni nazoratdan yechishga vakolatli idorani	2023-yil avgust	Raqamli texnologiyalar vazirligi, Raqamli rivojlanish departamenti <i>O'ziga tegishli qismida barchasi asosiy ijrochi</i>	Mahalliy budjet mablag'lari	"Raqamli Toshkent" tajribasi bosqichma-bosqich Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda joriy etiladigan buning natijasida aholi muammolarini hal qilishning yangi mexanizmi yaratilishi hamda kommunal xo'jalik infratuzilmasiga ajratiladigan budjet mablag'lari manzillik sarflanishiga erishiladi.

	<p>belgilashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat (reglament) loyihasini ishlab chiqish;</p> <p>2) ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish;</p> <p>3) “Raqamli geoportal” axborot tizimi va “Xalq nazorati” platformasini:</p> <p>birinchi bosqichda — Angren, Ohangaron, Yangiyo‘l, Chirchiq va Nurafshon shaharlarida ishga tushirish;</p> <p>ikkinchi bosqichda — Jizzax va Urganch shaharlarida ishga tushirish;</p> <p>4) “Kommunal xatlov” axborot tizimini Angren, Ohangaron, Yangiyo‘l, Chirchiq, Nurafshon, Jizzax va Urganch shaharlarida ishga tushirish;</p> <p>5) yuqoridagi axborot tizimlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda ishga tushirish.</p>	<p>2023-yil sentyabr</p> <p>2023-yil avgust</p> <p>2023-yil dekabr</p> <p>2024-yil dekabr</p> <p>2025-yil dekabr</p>	<p>Toshkent viloyati hokimligi, Jizzax viloyati hokimligi, Xorazm viloyati hokimligi, Raqamli rivojlanish departamenti Raqamli texnologiyalar vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat hokimliklari</p>		
42.	<p>“Raqamli hudud” dasturi doirasida Raqamli rivojlanish departamenti so‘roviga asosan quyidagi ma’lumotlarning dolzarbligini ta’minlagan holda muntazam ravishda taqdim etib borilishini yo‘lga qo‘yish:</p> <p>1) ma’muriy-hududiy birliklar, mahalla fuqarolar yig‘inlari va sektorlarning chegaralari, ko‘chmas mulk obyektlari, ularning yer uchastkalari chegaralarining raqamli xaritalari hamda ularning geografik joylashuvi;</p>	2023-yil avgustdan doimiy	Kadastr agentligi, Raqamli rivojlanish departamenti	-	“Raqamli hudud” dasturi doirasida Raqamli rivojlanish departamenti bilan aktual ma’lumotlar birovchi ta’minlanadi.

	<p>2) Davlat kartografiya-geodeziya fondida va boshqa tashkilotlarida saqlanayotgan aerosuratlar, kosmik suratlar va ular asosida yaratilgan ortofotoplanlar, shuningdek boshqa arxiv xaritalar;</p> <p>3) Davlat kadastrlari palatasi tomonidan yuritilayotgan Davlat kadastrlari yagona tizimi ma'lumotlar bazasi ma'lumotlari.</p>				
43.	<p>Axborot tizimlaridagi mavjud ma'lumotlarga noyob identifikatorlar (JShShIR, STIR, kadastr raqami, geografik kod, transport vositasini ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgisi) kiritish. Bunda:</p> <p>1) hududlarni raqamlashtirish loyihalari doirasida joriy etilgan loyihalarda qo'llanilayotgan noyob identifikatorlar, kataloglar va tasniflagichlardan foydalanilishi bo'yicha davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini to'liq xatlovdan o'tkazish;</p> <p>2) xatlov natijasi bo'yicha aniqlangan kamchil?klarni bartaraf etishga qaratilgan vazifalarni belgilash;</p> <p>3) kamchiliklarni bartaraf etish.</p>	<p>2023-yil sentyabr</p> <p>2023-yil noyabr</p> <p>2023-yil dekabr</p>	<p>Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari</p>	-	<p>Hududlarni raqamlashtirish loyiha doirasida joriy etilgan axborot tizimlariga taq etiladigan vazirlik v idoralarning tegishl axborot tizimlaridag mavjud ma'lumotlar tarkibiga majburiy ravit noyob identifikatorlar (JShShIR, STIR, kadastr raqami, geografik ko transport vositasini ro'yxatdan o'tkazish da raqami belgisi) kiritila</p>
<p>V. IT-industriyani yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, IT-xizmatlar eksporti hajmi oshirish</p>					
44.	<p>IT-parkda xorijiy kompaniyalar uchun Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi faoliyatini tashkil etish</p>		<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi,</p>	<p>Ijrochilar mablag'lari</p>	<p>Innovatsion ekotizi yaratish hamda respublikaga yetakcl xorijiy IT-kompaniyal venchur jamg'armalar</p>

	<p>yuzasidan takliflar ishlab chiqish. Bunda:</p> <p>1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashi qoshida maxsus ishchi guruh shakllantirish hamda uning faoliyatini ekspert-maslahat jihatdan ta’minlash uchun ishchi guruhga xorijiy va mahalliy ekspertlarni jalb etish;</p> <p>2) loyiha guruhi tomonidan amaldagi qonunchilik, moliya texnologiyalar mahalliy bozori hamda soliq rejimi va bank sohasida tartibga solishning joriy holatidan kelib chiqib, xorijiy tajribani o‘rganish hamda uni amaliyotga joriy qilish imkoniyatini kompleks tahlil qilish;</p> <p>3) Raqamli texnologiyalar xalqaro markazida xorijiy kompaniyalar uchun qo‘llaniladigan maxsus huquqiy rejimni joriy qilish, ularning moliyaviy faoliyatini tartibga solish, “tartibga solish qumdoni”ni joriy etish kabi masalalarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2023-yil iyul</p> <p>2023-yil oktyabr</p> <p>2023-yil dekabr</p>	<p>Investitsiyalar sanoat va savdo vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Markaziy bank, Adliya vazirligi</p>		<p>moliya texnologiyalar sohasidagi startap loyihalarni jalb qilish maqsadida IT-parkd xorijiy kompaniyalar uchun Raqamli texnologiyalar markazini tashkil etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.</p> <p>Bunda, O‘zbekiston bozoriga yirik xorijiy kompaniyalarni keng jalb etish, O‘zbekistonning jahon maydonida investitsion jozibadorlik oshirish, shuningdek innovatsion loyihalarni amalga oshirilishini rag‘batlantirish imkoniyati yaratiladi.</p>
45.	<p>“ICT WEEK UZBEKISTAN 2023” haftaligini tashkil etish. Bunda:</p> <p>1) haftalik doirasida o‘tkazilishi rejalashtirilgan tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash;</p> <p>2) xalqaro tadbirni tashkil etish uchun eng</p>	2023-yil dekabr	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi</p>	Ijrochilar mablag‘lari	<p>“ICT WEEK UZBEKISTAN 2023” haftaligi tashkil etiladi. O‘zbekistonning IT bozorida erishgan natijalari va yutuqlarini xalqaro maydonda namoyish etish shuningdek xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish imkoniyati yaratiladi.</p>

	yaxshi takliflar asosida tashkilotchini aniqlash va shartnoma imzolash.				
46.	<p>IT-park rezidentlari tomonidan amalga oshirishga ruxsat etilgan faoliyat turlari ro'yxatini kengaytirish uchun quyidagilarni nazarda tutuvchi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini ishlab chiqish:</p> <p>1) multimedia va dizayn sohasining veb-dizayn, grafika dizayni, kompyuter o'yinlari dizayni, vektor grafikasi, 3D-grafika, vizuallashtiruvchi dizayn, interfeys dizayni, texnik dizayn, moushn-dizayn sohasida xizmat ko'rsatish;</p> <p>2) dasturiy ta'minotdan foydalangan holda multiplikatsiya mahsulotlarini ishlab chiqarish;</p> <p>3) IT-park va uning filiallari hududida joylashgan va yuridik manzilda ro'yxatdan o'tgan tashkilotlar tomonidan axborot texnologiyalari sohasidagi loyihalarni venchur moliyalashtirish hamda akseleratsiya dasturlarini amalga oshirish faoliyati bilan shug'ullanish;</p> <p>4) IT-park rezidentlarining axborot tizimlarini davlat organlarining axborot tizimlari bilan majburiy integratsiya qilish talabini bekor qilish;</p> <p>5) IT-park rezidentlari "Virtual ofis" xizmatidan foydalanganda ijara shartnomasini tuzish tizimini takomillashtirish.</p>	2023-yil avgust	Raqamli texnologiyalar vazirligi	-	IT-park rezidentlari tomonidan amalga oshirishga ruxsat etilgan faoliyat turlari ro'yxatini kengaytiriladi.

47.	<p>Yuridik shaxslarning IT-park rezidenti maqomini olish tartibini va IT-park rezidentlarining hisobotlarini soddalashtirish va ularni soliq va statistika organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilish. Bunda:</p> <p>1) hisobot shaklini qayta ko'rib chiqish va soddalashtirish hamda soliq va statistika organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilish;</p> <p>2) normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2023-yil avgust</p> <p>2024-yil mart</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Statistika agentligi</p>	-	<p>Yuridik shaxslarning IT-park rezidenti maqomini olish tartibi IT-park rezidentlarining IT-parkka hisobot taqdim etish tartibi soddalashtiriladi va ularning axborot tizimlari soliq organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilish orqali ular faoliyatini avtomatlashtiriladi, IT-park rezidentlarining faoliyatini yanada takomillashtiriladi.</p>
48.	<p>IT-park majmuasi binolari qurilishi bo'yicha loyiha-smeta hujjatlariga belgilangan tartibda taklif kiritish.</p>	2023-yil dekabr	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Toshkent shahri hokimligi</p>	-	<p>IT-park majmuasi binolari qurilishi bo'yicha loyiha-smeta hujjatlariga taklif kiritiladi.</p>
49.	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi faoliyati tugatilayotgan quyidagi axborot texnologiyalari texnikumlari binolarini maqsadli tarzda joylarda raqamli industriyani rivojlantirish uchun IT-park balansiga o'tkazish:</p> <p>1) Farg'ona axborot texnologiyalari texnikumi;</p> <p>2) Urganch axborot texnologiyalari texnikumi.</p>	2024-yil mart	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi</p>	-	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi faoliyati tugatilayotgan axborot texnologiyalari texnikumlari binolarini negizida IT-park loyiha doirasida 500 dan ortiq o'rinlari yaratiladi, viloyatda faoliyat yuritmoqchi bo'lgan kompaniyalari uchun binolari ajratiladi.</p>
50.	<p>2024-yil 1-yanvardan boshlab tadbirkorlik subyektlariga elektron tijorat faoliyati doirasida erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar bilan chakana savdo operatsiyalarini amalga oshirishga ruxsat</p>		<p>Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi</p>	-	<p>Elektron tijorat sohasini rivojlantirish orqali savdo aylanmasi hajmini oshirish shuningdek, iqtisodiyotni xufiyona aylanmani qisqartirish uchun sharoit yaratiladi.</p>

	berish choralarini ko'rish. Bunda: 1) ayrim qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha qonun loyihasi, shuningdek, ushbu tartibni amalga oshirish uchun zaruriy mexanizmlarni joriy etishga doir normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish; 2) qonun va normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2023-yil noyabr			
		2023-yil dekabr			
51.	Raqamli texnologiyalar sohasida IT-ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish hamda eksportga yo'naltirish bo'yicha startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun tanlov asosida 1 milliard so'mgacha bo'lgan grantlar ajratishni IT-park orqali amalga oshirish. Bunda: 1) ilg'or xorijiy tajriba asosida ushbu grant mablag'larini olish uchun axborot platformasi orqali murojaat qilish, murojaat qilish jarayonini kuzatib borish, loyihaning moliyaviy va texnik jihatdan baholanishi hamda grant mablag'lar ajratilishi tartibi loyihasini ishlab chiqish; 2) grant mablag'larini ajratishni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish va kelishish; 3) Hukumat qarori loyihasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2023-yil avgust	Raqamli texnologiyalar vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi	Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va jamg'armasi	Raqamli texnologiyalar sohasida IT-ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish hamda eksportga yo'naltirish bo'yicha startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun tanlov asosida 1 milliard so'mgacha bo'lgan grantlar ajratishni IT-park orqali amalga oshiriladi. Bunda, grant mablag'larini ijtimoiy hayotdagi muammolarni hal etish hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qulaylik va imkoniyatlar yaratish shu jumladan, inson haqiqiy va sog'lig'ini himoya qilish, ta'lim, madaniy yoshlar, xotin-qizlar, sport sun'iy intellekt, jamoat tartibini ta'minlash uchun ularning kelgusida amaliyotga joriy etilgan holda mustaqil faoliyat ko'rsata olishi inobatda olinib ajratiladi.
VI. "Raqamli ta'lim" dasturini amalga oshirish					
52.	"Bir million dasturchi" loyihasining			Raqamli texnologiyalarni	"Bir million dasturchi" loyihasini

<p>navbatdagi bosqichini amalga oshirish. Bunda:</p> <p>1) Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi hisobidan xorijiy nufuzli ta'lim platformalarida onlayn o'quv kurslarda tahsil olish imkoniyatini yaratish;</p> <p>2) masofaviy ta'lim platformalari afzalliklarini ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish, yoshlarni o'qitish hamda loyiha doirasida rag'batlantirish choralari ko'rish.</p>	<p>2023 — 2025-yillar</p> <p>2023 — 2025-yillar</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, manfaatkor vazirlik va idoralar</p>	<p>rivojlantirish jamg'armasi, IT-park mablag'lari, hisob-kitoblarga asosan</p>	<p>navbatdagi bosqich amalga oshiriladi.</p>
<p>53. Yoshlarga kompyuter xaridlari uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan mikroqarz shaklida hamda "Yoshlar daftari" hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi jamg'armalari hisobidan beriladigan subsidiya mablag'larini ijtimoiy shartnoma asosida yoshlar xohishiga ko'ra alohida ochilgan bank kartasiga (naqdlashtirish imkoniyatisiz) o'tkazish mexanizmini joriy etish. Bunda:</p> <p>1) subsidiyalar bo'yicha ijtimoiy kontraktda o'zini o'zi band qilish, yakka tartibdagi tadbirkorlik, mehnat shartnomasi asosida ishlash, ta'lim olish, "Coursera" ta'lim platformasida muvaffaqiyatli o'qishni yakunlagan va tegishli sertifikatga ega yoshlarga kompyuter xaridi uchun iste'mol kreditlari ajratilishi amaliyotini davom ettirish kabi masalalarni nazarda</p>	<p>2023-yil iyun</p>	<p>Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Markaziy bank, Raqamli texnologiyalar vazirligi</p>	<p>Davlat budjetidan Yoshlar ishlari agentligiga ajratilgan mablag'lar</p>	<p>Kredit mablag'lar yoshlarning xohishiga ko'ra plastik kartasiga o'tkazishga ruxsat beriladi.</p>

	<p>tutuvchi takliflarini ishlab chiqish;</p> <p>2) tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan loyiha ishlab chiqish;</p> <p>3) normativ-huquqiy hujjat loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	2023-yil iyul			
54.	<p>Til bilish darajasi hamda IT-sohasida bilimlar darajasini tasdiqlovchi xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarini qoplab berishning mavjud tartiblariga qo'shimcha ravishda Davlat budjeti mablag'lari hisobidan ingliz tilida B2 darajasiga ega bo'lgan yoshlarning xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarini to'liq qoplab berish. Bunda:</p> <p>1) tegishli normativ-huquqiy hujjatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha loyihani ishlab chiqish;</p> <p>2) normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2024-yil iyun</p> <p>2024-yil avgust</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi</p>	Davlat budjeti mablag'lari	<p>Til bilish darajasi hamda IT-sohasida bilimlar darajasini tasdiqlovchi xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarini qoplab berishning mavjud tartiblariga qo'shimcha ravishda davlat budjeti mablag'lari hisobidan ingliz tilida B2 darajasiga ega bo'lgan yoshlarning xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlari to'liq qoplab beriladi.</p>
55.	<p>Davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining raqamlashtirishga mas'ul o'rinbosarlari va xodimlari uchun raqamlashtirish sohasidagi qoidalar va qonunchilik talablarini o'z ichiga olgan "hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida</p>		<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, vazirlik va idoralar</p>	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi, hisob-kitoblarga asosan	<p>Maxsus axborot platformasi orqali davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining raqamlashtirishga mas'ul o'rinbosarlari va xodimlarini raqamlashtirish sohasidagi qoidalar va qonunchilik talablarini olish "hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida</p>

	<p>o'qitishning maxsus axborot platformasini yaratish. Bunda:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) maxsus platforma yaratish bo'yicha texnik talablarni ishlab chiqish; 2) maxsus platformani ishga tushirish; 3) platformani kontent (videokontent, matnli darslar, FAQ, forum, testlar) bilan to'ldirish choralari ko'rish. 	<p>2023-yil oktyabr</p> <p>2024-yil mart</p> <p>Doimiy ravishda</p>			<p>olish" (Life Long Learning) tamoyili aso o'qitish yo'lga qo'yila</p>
56.	<p>Bitiruvchisi IT-xizmatlarni eksport qiluvchi IT-park rezidenti bo'lgan kompaniyalar ishga joylashgan nodavlat o'quv markazlariga har bir bitiruvchi uchun Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 75 baravarigacha, nogironligi bo'lgan yoshlar uchun esa 105 baravarigacha bir martalik subsidiya ajratish tizimini yo'lga qo'yish. Bunda:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish; 2) normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. 	<p>2023-yil sentyabr</p> <p>2023-yil oktyabr</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi</p>	-	<p>Bitiruvchisi IT-xizmatlarni eksport qiluvchi IT-park rezidenti bo'lgan kompaniyalar ishga joylashgan nodavlat o'quv markazlariga har bir bitiruvchi uchun Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 75 baravarigacha, nogironligi bo'lgan yoshlar uchun 105 baravarigacha bir martalik subsidiya ajratish orqali yoshlarning sohasiga bo'lgan qiziqishini oshirish har IT sohasida eksport rag'batlantirish imko yaratiladi.</p>
57.	<p>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti faoliyatini transformatsiya qilish dasturini ishlab chiqish. Bunda:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) Universitet faoliyatini transformatsiya qilishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish; 	<p>2023-yil iyul</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti</p>	-	<p>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti faoliyatini jumladan quyidagilar nazarda tutgan holda transformatsiya qilish dasturi ishlab chiqilad nufuzli xorijiy oli ta'lim tashkilotlarini axborot texnologiyala</p>

	<p>2) normativ-huquqiy hujjat loyihasini vazirliklar va idoralarga kelishish uchun kiritish;</p> <p>3) normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2023-yil oktyabr</p> <p>2023-yil oktyabr</p>			<p>sohasidagi o'quv dasturlarini joriy etish</p> <p>Universitet filiallarida 2024 — 2027-yillarda bosqichma-bosqich mustaqil oliy ta'lim muassasalari sifatida qurilishni tashkil etish;</p> <p>startap loyihalarni bitiruv malakaviy ishlari sifatida qabul qilish</p> <p>ta'lim va amaliyotni uyg'unligi asosida raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarining innovatsion yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish laboratoriyasi faoliyatini yo'lga qo'yish.</p>
58.	<p>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida nufuzli xorijiy oliy ta'lim tashkilotining axborot texnologiyalari sohasidagi o'quv dasturlarini joriy etish.</p> <p>Bunda:</p> <p>nufuzli xorijiy universitetlar bilan hamkorlik qilish;</p> <p>hamkorlik shartnomalarini (memorandum) ishlab chiqish va kelishuvga asosan imzolash;</p> <p>nufuzli xorijiy universitetning IT-o'quv dasturlarini xorijiy davlatning standartlariga muvofiq mazkur IT-o'quv dasturlariga qo'yilgan talab va qoidalar asosida joriy qilish;</p> <p>talabalarni o'qitishni ingliz tilida, O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari talablarini hisobga olgan holda,</p>	<p>2023/2024 o'quv yili davomida</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi</p>	<p>Universitet mablag'lari va boshqa manbalar</p>	<p>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida xorijiy oliy ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikda o'quv dasturlari joriy etiladi</p>

	xorijiy oliy ta'lim tashkilotining o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq olib borish.				
59.	<p>Surxondaryo viloyatida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining filialini tashkil etish bo'yicha takliflar kiritish. Bunda:</p> <p>1) filial tashkil etish bo'yicha ishchi guruh tuzgan holda talabni o'rganish;</p> <p>2) Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Surxondaryo filialini tashkil etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.</p>	<p>2023-yil oktyabr</p> <p>2023-yil dekabr</p>	<p>Surxondaryo viloyati hokimligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi</p>	-	<p>Surxondaryo viloyatida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining filialini tashkil etish bo'yicha takliflar amalga oshiriladi va asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.</p>
60.	Xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish borasidagi ko'nikmalarini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2023 — 2025-yillar davomida	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, Toshkent shahridagi Inxat universiteti, Davlat boshqaruvi akademiyasi</p>	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi va boshqa manbalar	Xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish borasidagi amaliy ko'nikmalarini oshirish.
61.	<p>Iqtidorli yoshlarni saralash, qo'shimcha o'qitish hamda xalqaro mehnat bozoriga tayyorlash "IT Skills" tizimini joriy etish. Bunda:</p> <p>1) IT sohasiga qiziquvchi yoshlar bazasini shakllantirish mexanizmini yaratish;</p> <p>2) yoshlarning bilim va ko'nikmalarini aniqlashga qaratilgan baholash mexanizmini ishlab chiqish;</p> <p>3) yoshlarni ularning bilim va ko'nikmalarida aniqlangan bo'shliqlarni</p>	2024-2025-yillar	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi</p>	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi, hisob-kitoblarga asosan	Mamlakatda malaka va ko'nikmalarda IT kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida yosh kadrlar tayyorlash va IT sohasida malaka va ko'nikmalarni baholash tizimi joriy qilinadi.

	rivojlantirish maqsadida o'qitishni nazarda tutish.				
62.	Toshkent moliya instituti va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari uchun universal bank kartasini yaratish maqsadida "Talaba kartasi" tajriba sinov loyihasini amalga oshirish.	2024-yil avgust	Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, AT "Aloqabank", Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Toshkent moliya instituti	Ijrochilar mablag'lari	Toshkent moliya instituti va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari uchun universal bank kartasi joriy etiladi.
63.	O'zbekistonda qizlarni raqamli texnologiyalar sohasiga yanada kengroq jalb etish va ularning IT-ko'nikmalarini rivojlantirish.	2023 — 2025-yillar	Raqamli texnologiyalar vazirligi	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi va boshqa manbalar	Loyiha 14 va undan katta yoshdagi qizlarni qamrab oladi. Loyiha doirasida ishtirokchi qizlarning sohasidagi bilim va ko'nikmalari shakllantiriladi.
64.	"Foreign language" telekanalida IT-sohasiga o'qitish bo'yicha o'quv kurslari va qiziqarli kontent joylashtirishni yo'lga qo'yish. Bunda: 1) "Foreign language" telekanalida raqamli texnologiyalardan foydalangan holda xorijiy tillar va dasturlashni yoshlarga sodda va kreativ ko'rinishda yetkazib, ularning dunyoqarashini kengaytiradigan va kreativ fikrlashga undaydigan mazmunli va foydali kontent shakllantirish bo'yicha mediadastur ishlab chiqish; 2) teledasturlarni tayyorlash va efirga berish; 3) Raqamli texnologiyalar vazirligiga "Foreign language" telekanali uchun xorijiy tillarda (subtitrl bilan) zamonaviy kontent yaratish va ularni efirga uzatish uchun taqdim etish.	2024-2025-yillar 2023-yil sentyabr	Raqamli texnologiyalar vazirligi, MTRK Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar Ijrochilar mablag'lari	Xorijiy tillarga o'rgatish uchun "Foreign language" telekanalida IT-yo'nalishda o'qitish bo'yicha o'quv kurslari va qiziqarli kontent joylashtirish yo'lga qo'yiladi.

65.	<p>Andijon axborot texnologiyalari texnikumi bazasida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Andijon filialini yoki xorijiy hamkorlar bilan oliy ta'lim muassasasini tashkil etish.</p> <p>Bunda:</p> <p>tashkil etiladigan oliy ta'lim tashkilotining binosini ta'mirlash, moddiy texnika infratuzilmasini shakllantirish;</p> <p>institutni o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash;</p> <p>2025/2026 o'quv yilidan boshlab tashkil etiladigan institutga talabalarni qabul qilish.</p>	<p>2024-yil avgust</p> <p>2025-yil avgust</p> <p>2025/2026 o'quv yili</p>	<p>Andijon viloyat hokimligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p>	<p>Ijrochilar mablag'lari</p>	<p>Andijon axborot texnologiyalari texnikumi bazasida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Andijon filiali yoki xorijiy hamkorlar bilan oliy ta'lim muassasasi tashkil etiladi.</p>
66.	<p>Axborot texnologiyalari sohasida o'zini-o'zi band qilish orqali daromad topishga o'rgatadigan, dasturlash va raqamli mahsulot yaratishda foydalaniladigan darslik va adabiyotlar yaratish, ularni tarjima qilish va moslashtirish hamda foydali (raqamli) kontent yaratish.</p>	<p>2023-2025-yillar</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, Toshkent shahridagi Inha universiteti</p>	<p>Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi</p>	<p>Mamlakatning IT xizmatlar eksporti potensialini oshirish axborot texnologiyalar keng targ'ib qilish hamda o'rganish uchun tegis o'quv qo'llanma darslik yaratiladi va moslashtiriladi.</p>
67.	<p>Axborot texnologiyalari yo'nalishi bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro fan olimpiadalari va musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish ishlarini tashkil etish, raqamli texnologiyalar va boshqa sohalarda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlarni yetkazish mexanizmini yaratish. Bunda:</p> <p>1) iqtidorli yoshlarni saralash, mahalliy trenerlar va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda o'quv</p>	<p>2024-2025-yillar</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi</p>	<p>Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi va boshqa manbalar</p>	<p>Axborot texnologiyalar yo'nalishi bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro olimpiadalari va musobaqalarga yoshlarni maqsadli tayyorlanadigan shuningdek, yoshlarni musobaqalarga tayyorlanishlari uchun zarur o'quv materiallari ishlab chiqilib, amaliy foydalanish imkoniyati yaratiladi.</p>

<p>mashg'ulotlarini tashkil qilish;</p> <p>2) axborot texnologiyalari yo'nalishi bo'yicha olimpiada va musobaqalarga mustaqil tayyorlanish uchun iqtidorli o'quvchilar va o'qituvchi-trenerlarga mo'ljallangan o'quv qo'llanmalari, raqamli kontent va boshqa qo'shimcha materiallar ishlab chiqish va ularni erkin foydalanish uchun ochiq elektron resurslarga joylashtirish;</p> <p>3) raqamli texnologiyalar va boshqa sohalarda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlarni yetkazish maqsadida raqamli kontent yaratish choralari ko'rish.</p>				
<p>68. Zaxira (kvota) ish o'rinlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarni muvofiqlashtirish. Bunda:</p> <p>1) "YaMMT" IDAKda tuman, shahar hokimlarining qarori bilan tasdiqlangan, ish o'rinlarini zaxiralagan korxonalar va tashkilotlarning manzilli ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2) "Bandlik xizmati" ATda YaMMT orqali ish o'rinlarini zaxiralagan korxonalar hamda ushbu ish o'rinlariga ishga joylashtirilgan fuqarolar to'g'risida hisobotni yuritish.</p> <p>3) hisobotlarga asosan toifalar bo'yicha ishga joylashtirilgan fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlarni tuman, shahar va korxonalar kesimida</p>	<p>2023-yil sentyabr</p> <p>2023-yil noyabr</p> <p>2023-yil dekabr</p>	<p>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi</p>	<p>Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar va budjetdan tashqari mablag'lar</p>	<p>Zaxira (kvota) ish o'rinlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirishning shafqatli tizimi yo'lga qo'yiladi</p>

	doimiy tahlil qilish hamda aniqlangan kamchiliklar bo'yicha hududiy boshqarmalarga tegishli ko'rsatmalar berib borish.				
69.	<p>“Bandlik xizmati” ATda fuqarolar tomonidan imzolanadigan hujjatlarni rasmiylashtirish va xizmatlarni imzolash uchun elektron imzolarni kiritish qurilmalaridan foydalanishni joriy qilish. Bunda:</p> <p>1) elektron imzolash qurilmasini tizimga moslash va o'rnatish hamda sinov tariqasida ishga tushirish;</p> <p>2) tuman, shahar mehnat organlarini elektron imzolash qurilmalari bilan ta'minlash;</p> <p>3) elektron imzolash qurilmasini to'liq ishga tushirish.</p>	<p>2023-yil sentyabr</p> <p>2023-yil oktyabr</p> <p>2023-yil noyabr</p>	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi	Hisob kitoblarga asosan	“Bandlik xizmati” ATda fuqarolar tomonidan imzolanadigan hujjatlarni rasmiylashtirish va xizmatlardan foydalanishni joriy qilishni ta'minlashning qulayligi oshiriladi.
70.	<p>Har bir mahalla kesimida tadbirkorlikning rivojlanganligi, kambag'allik, ishsizlik darajasidan kelib chiqib “Mahallalar reytingi”ni ishlab chiqish va Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining saytida e'lon qilib borish. Shuningdek, Vazirlikning hukumat portali negizida tashkil etilib, yangilangan veb-saytida “Mahallalar reytingi” modulini ishlab chiqish.</p>	2023-yil avgust	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi	-	Har bir mahalla kesimida tadbirkorlikning rivojlanganligi, kambag'allik, ishsizlik darajasidan kelib chiqib “Mahallalar reytingi”ni ishlab chiqish va shakllantirilishi natijasida tegishli yo'nalishlaridagi chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.
VII. Axborot texnologiyalarini joriy etish va ko'rsatilayotgan Raqamli xizmatlar sifati ustidan samaralarini o'lchov					
“Raqamli nazorat”ni yo'lga qo'yish					
71.	“O'zkomnazorat” inspeksiyasi xodimlarining belgilangan umumiy cheklangan soni doirasida yuridik maqomga ega bo'lmagan “Raqamli	2024-yil oktyabr	“O'zkomnazorat” inspeksiyasi	Ijrochilar mablag'lari	Davlat idoralari va tashkilotlari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda haqqoniy raqamli xizmatlar ma'lumotlar va

	<p>nazorat” vaziyatlarni kompleks nazorat qilish markazini (mustaqil tashkiliy-huquqiy maqomga ega bo‘lmagan) tashkil qilish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.</p>				<p>ko‘rsatkichlarga erishish hamda telekommunikatsiya tarmoqlarining holatini operatsion va provayder tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati ustidan vaqt rejimida tizimning monitoring olib borish imkonini beruvchi yuridik maqomga ega bo‘lmagan “Raqamli nazorat” vaziyatlarni kompleks nazorat qilish markazini tashkil qilish bo‘yicha takliflar kiritiladi.</p>
72.	<p>Axborot tizimlari va resurslarini integratsiya qilish orqali “IT-monitoring” tizimini ishga tushirish. Bunda:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) integratsiya qilinishi lozim bo‘lgan axborot tizimlari va ma’lumotlar ro‘yxatini shakllantirish; 2) tizimlarni integratsiya qilish bo‘yicha texnologik yo‘riqnomani ishlab chiqish va tasdiqlash; 3) modulni sinov tariqasida amaliyotga joriy etish. 	<p>2024-yil noyabr</p> <p>2024-yil dekabr</p> <p>2025-yil avgust</p>	<p>“O‘zkomnazorat” inspeksiyasi, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>	<p>Ijrochilar mablag‘lari</p>	<p>Axborot tizimlari resurslarini integratsiya qilish orqali “IT-monitoring” tizimi ishga tushiriladi.</p>
73.	<p>Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari hamda pochta xizmatlarini ko‘rsatish sohasida ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini ta’minlash bo‘yicha tartiblarni takomillashtirish hamda raqamli xizmat va servislar texnik faoliyati sifati va barqaror ishlashi hamda ishonch telefonlari (idoraviy aloqa markazlari) va portallar faoliyati ustidan nazorat o‘rnatish bo‘yicha taklif kiritish.</p>	<p>2023-yil sentyabr</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, “O‘zkomnazorat” inspeksiyasi</p>	<p>-</p>	<p>Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari va pochta xizmatlarini ko‘rsatish sohasida ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini ta’minlash bo‘yicha tartiblarni takomillashtirish</p>
74.	<p>Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi raqamli</p>	<p>2024-yil yanvar oyidan</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi,</p>	<p>Ijrochilar mablag‘lari</p>	<p>Aholi va tadbirkorlik subyektlarining raqamli xizmatlar va servislarini</p>

	<p>xizmatlar va servislardan qoniqish darajasining inson omilisiz avtomatlashtirilgan holda reytingini shakllantirish hamda har yarim yillikda e’lon qilib borish.</p> <p>Bunda:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) xizmat va servislardan qoniqish darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish; 2) aholi va tadbirkorlik subyektlarining raqamli xizmatlar va servislardan qoniqish darajasining inson omilisiz avtomatik rejimdagi reytingini shakllantirish tartibini ishlab chiqish; 3) inson omilisiz avtomatlashtirilgan holda reytingni shakllantirish axborot tizimini ishlab chiqish va ishga tushirish. 	boshlab doimiy	“O‘zkomnazorat” inspeksiyasi		qoniqqanlik darajasini inson omilisiz avtomatik rejimdagi reytingi shakllantiriladi hamda yarim yilda e’lon qilib boriladi.
75.	<p>Jamoat, sanoat, turar-joy, ma’muriy binolar va inshootlarni (keyingi o‘rinlarda — obyektlar) loyihalash, qurish hamda foydalanishga qabul qilish jarayonida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi obyektlari, shu jumladan kabel kanalizatsiyasi, past tokli kabel shaxtalari, abonent pochta javonlari, telekommunikatsiya qurilmalarini o‘rnatish uchun maydonlar va infratuzilmalar bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.</p>	2023-yil avgust	Raqamli texnologiyalar vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi	-	<p>Jamoat, sanoat, turar-joy, ma’muriy binolar va inshootlarni loyihalash, qurish hamda foydalanishga qabul qilish jarayonida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi obyektlari, shu jumladan kabel kanalizatsiyasi, past tokli kabel shaxtalari, abonent pochta javonlari, telekommunikatsiya qurilmalarini o‘rnatish uchun maydonlar va infratuzilmalar bilan ta’minlanish tartibini takomillashtiriladi.</p>
76.	<p>Pochta aloqasi va kuryerlik xizmatlarini taqdim etish faoliyatini xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari qatoriga</p>		Raqamli texnologiyalar vazirligi, Adliya vazirligi, Raqobatni rivojlantirish	-	<p>Pochta aloqasi xizmatlari ko‘rsatish qoidalari, shu jumladan insonlarning hayoti, sog‘lig‘i, atrof-muhitini hamda pochta aloqasi s</p>

	<p>kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish. Bunda:</p> <p>Bunda:</p> <p>1) pochta aloqasi va kuryerlik xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan vakolatli organni xabardor qilish bo'yicha Qonun loyihasini ishlab chiqish;</p> <p>2) qonun loyihasini tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish;</p> <p>3) qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2023-yil oktyabr</p> <p>2023-yil dekabr</p> <p>2024-yil mart</p>	<p>va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi</p>		<p>himoya qilish, pochta kuryerlik jo'natmalarini but saqlanishi bo'yicha qonunchilik talablari ta'minlash maqsadida pochta aloqasi va kuryerlik xizmatlarini taqdim etish faoliyatini xabardor qilish tartibi amalga oshiriladigan faoliyat turlari qatori kiritiladi.</p>
77.	<p>“O‘zkomnazorat” inspeksiyasining ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalari ko‘rib chiqilmaganligi holati yuzasidan ta’sirchan javobgarlik choralarini belgilash bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.</p>	<p>2023-yil oktyabr</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi</p>	-	<p>Raqamli iqtisodiyotda raqamli hukumat sohasida tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari shu jumladan mavjud axborot tizimlari va dasturiy-apparat komplekslari hamda raqamli xizmatlarda foydalanish (yoki samarasiz qo‘llash) borasida aniqlangan qonun buzilishlari, ularga imkon beruvchi sabablar va sharoitlarni bartaraf etish uchun ta’sirchan nazorat o‘rnatiladi.</p>
78.	<p>Raqamlashtirish yo‘nalishida faoliyatga ko‘maklashish hamda mavjud muammolar va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni shakllantirish maqsadida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari, davlat unitar korxonalari va uyushmalarini mustaqil “IT-audit”dan o‘tkazish tartibini yo‘lga qo‘yish</p>	<p>2024-yil mart</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi, “O‘zkomnazorat” inspeksiyasi</p>	-	<p>Raqamlashtirish yo‘nalishida faoliyatga ko‘maklashish hamda mavjud muammolar va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalarni shakllantirish maqsadida davlat va xo‘jalik boshqaruvi har bir mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarini mustaqil “IT-audit”dan o‘tkazish bo‘yicha taklif ishlab chiqiladi.</p>

	yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.				
79.	Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida joriy etilgan axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarning foydalanish samaradorligi ustidan tizimli monitoringni yo‘lga qo‘yish va natijasi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga batafsil axborot kiritish.	Har yarim yillikda	Raqamli texnologiyalar vazirligi, “O‘zbeknazorat” inspeksiyasi	-	Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarini joriy etish va ulardan foydalanish samaradorligi oshirila

VIII. Kosmik faoliyatni yanada takomillashtirish

80.	Hududlarning raqamli xaritalarini yaratish uchun sarflanadigan moliyaviy mablag‘larni optimallashtirish maqsadida davlat kosmik monitoringini o‘tkazish doirasida olinadigan kosmik suratlarni markazlashgan holda tegishlilik bo‘yicha vazirlik va idoralarga taqdim etish. Bunda: 1) vazirlik va idoralarning davlat kosmik monitoringi doirasida olingan kosmik suratlarga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganish; 2) o‘rganishlar natijasida ehtiyojlar ro‘yxatini shakllantirish; 3) ehtiyojlar ro‘yxatiga muvofiq kosmik suratlarni taqdim etish bilan ta’minlab borish.	har yili iyul oyiga qadar har yili sentyabr oyiga qadar 2024-yildan boshlab har yili dekabr oyida	Raqamli texnologiyalar vazirligi, “O‘zbekkosmos” agentligi	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	Hududlarning raqamli xaritalarini yaratish uchun sarflanadigan moliyaviy mablag‘larni optimallashtirish maqsadida davlat kosmik monitoringini o‘tkazish doirasida olinadigan kosmik suratlarni markazlashgan holda tegishlilik bo‘yicha vazirlik va idoralarga taqdim etiladi.
81.	“ArcGIS” geoaxborot tizimidan foydalanish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish.	shartnoma asosida	Raqamli texnologiyalar vazirligi, “O‘zbekkosmos” agentligi	Vazirlik va idoralar, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar, hisob-kitoblarga asosan	“Davlat uchun yagona litsenziya” tamoyili asosida geoaxborot tizimlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish hamda mazkur tizimlarni ishlash uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni

					tayyorlash ishlari amaliy oshiriladi.
82.	O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonuni loyihasini ishlab chiqib, o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil fevral	Raqamli texnologiyalar vazirligi	-	So‘nggi yillarda respublikaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xodimlarini rag‘batlantirish orqali ular faoliyatini samaradorligi oshirila

(5-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi PF-164-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.09.2023-y., 06/23/164/0737-son)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoniga
6-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6065-son Farmonida:

a) 6-band quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“Bunda:

Ichki ishlar vazirligi 2024-yil 1-yanvardan ID-kartalarni olish bo‘yicha anketalarni to‘ldirishda ICAO hujjatlari talablarini hisobga olgan holda ingliz tilida fuqaroning familiya va ismini ko‘rsatilishini;

Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi 2024-yil 1-yanvarga qadar taqdim etilgan barcha ID-kartalar bo‘yicha jismoniy shaxslarning ma’lumotlar bazasida fuqaroning familiya va ismini ingliz tilidagi ma’lumotlari bilan to‘ldirilishini ta’minlansin”;

b) 1-ilovaning 8-bandi quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“ingliz tilida familiya va ismi”;

uchinchi — sakkizinchi xatboshilar tegishincha to‘rtinchi — to‘qqizinchi xatboshilar deb hisoblansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmonida:

a) 3-band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Bunda, Raqamli texnologiyalar vazirligi Muvofiqlashtirish komissiyasi ishchi organi vazifasini amalga oshiradi”;

b) 22-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

““Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasi TARKIBI

1. A.N. Aripov — O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, *Komissiya raisi*
2. Sh.X. Shermatov — raqamli texnologiyalar vaziri, *Komissiya raisining o‘rinbosari*
3. Sh.D. Kudbiyev — iqtisodiyot va moliya vaziri
4. A.D. Tashkulov — adliya vaziri
5. H.O‘. Umarova — maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

6. I.Y. Abdurahmonov — oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
7. A.Sh. Inoyatov — sog'liqni saqlash vaziri
8. J.T. Mirzamahmudov — energetika vaziri
9. A.B. Voitov — qishloq xo'jaligi vaziri
10. Sh.R. Xamrayev — suv xo'jaligi vaziri
11. B.A. Musayev — kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi vaziri
12. B.I. Zakirov — qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri
13. I.R. Maxkamov — transport vaziri
14. B.F. Islamov — tog'-kon sanoati va geologiya vaziri
15. A.A. Abduxakimov — tabiat resurslari vaziri
16. A.I. Ikramov — yoshlar siyosati va sport vaziri
17. O.A. Nazarbekov — madaniyat va turizm vaziri
18. P.R. Bobojonov — ichki ishlar vaziri
19. M.B. Nurmuratov — Markaziy bank boshqaruvi raisi
20. A.J. Ortiqov — Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori
21. A.D. Xadjayev — O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi
22. O.A. Pekos — raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o'rinbosari
23. A.A. Abdullayev — Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha inspeksiyasi boshlig'i
24. Sh.M. Kadirov — Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi direktori
25. A.X. Muxitdinov — "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasi direktori, *komissiya kotibi*

Izoh. Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi."

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-martdagi "Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byurokratik to'siqlarni qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6191-son Farmoniga 1-ilovada 5 va 6 pozitsiyalari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

T/r	Ma'lumot va hujjatlar nomi	Ma'lumot va hujjatlarni berish uchun mas'ul vakolatli organlar
.
5.	"Manzil-ma'lumot", shuningdek, doimiy yashash va vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar (JShShIR, kadastr raqami orqali)	Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi
6.	Jismoniy shaxslarga tegishli barcha turdagi mavjud hujjatlar (biometrik pasport, ID-karta, xorijga chiqish pasporti, eski namunadagi pasport) to'g'risidagi ma'lumotlar	Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi

”

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PF-6208-son Farmoning 3-bandi "a" kichik bandining ikkinchi xatboshisi "25 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda iste'mol kreditlari" va "Bunda, iste'mol kreditlari" so'zlaridan keyin "va mikroqarzarlar" so'zlari bilan to'ldirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi “Davlat xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6269-son Farmoniga **3-ilovaning** 9-pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayyon etilsin:

“

T/r	Ma’lumot va hujjatlar nomi	Ma’lumotlar bazasini raqamlashtirish hamda ularni berishga mas’ul organlar
.
9.	Shaxs tamomlagan maktabgacha, boshlang‘ich va o‘rta ta’lim (maktab va boshqa) muassasasini tugatganligi haqida ma’lumotlar	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
.

”.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-maydagi “Raqamli iqtisodiyot va “Elektron hukumat” tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4321-son qarorida 3-bandning **“b” kichik** bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“b) “Elektron hukumat” va raqamli iqtisodiyot tizimi doirasidagi loyihalarni amalga oshirish doirasida:

raqamli hukumat tizimiga o‘tish va uni rivojlantirish ishlarini o‘zaro muvofiqlashtirish — “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasi tomonidan;

raqamli hukumat sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, raqamli hukumat loyihalarini amalga oshirilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish — Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan;

axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari va elektron resurslarini yaratishga doir loyihalarni amalga oshirish va amaliyotga joriy etish hamda ularning uzluksiz ishlashini ta’minlash — vazirlik va idoralar, xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi;”.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-maydagi ““Elektron hukumat” tizimi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4328-son qarori **3-bandida**:

a) quyidagi mazmundagi beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“loyihalarni amalga oshirish natijasida ishlab chiqilgan axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarini “Raqamli hukumat”ning axborot tizimlari va resurslari yagona reyestrda ro‘yxatdan o‘tkazish va amaliyotga joriy etishga ularning texnik topshiriq va axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda “Kiberxavfsizlik markazi” DUKning ijobiy xulosalari olinganidan so‘ng ruxsat beriladi;

ijobiy xulosaga ega bo‘lmagan axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarini foydalanishga qabul qilish, ishga tushirish hamda “Raqamli hukumat” doirasidagi tizimlar va servislar bilan integratsiya qilishga yo‘l qo‘yilmaydi”;

b) **beshtinchi-oltinchi xatboshilar** tegishincha yettinchi va sakkizinchi xatboshilar deb hisoblansin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-martdagi “Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4642-son qarorining 5-bandi **ikkinchi xatboshisidan** “bir yillik” so‘zlari chiqarib tashlansin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-iyuldagi “Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4771-son qarorining **5-bandi** quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan har yili davlat mulkini ijaraga berishda Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi

(inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida) faoliyati bo'yicha stavkalar hamda qo'llaniladigan oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori tasdiqlanishida bir yilga 1 kv.m. uchun ijara to'lovi tayanch stavkasining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati boshqa faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha o'sish sur'atlari darajasida belgilanadi”.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-104-son qaroriga **2-ilova** quyidagi mazmundagi 7-pozitsiya bilan to'ldirilsin:

“

T/r	Tovar nomi	TIF TN kodi
	ovoz, tasvir yoki boshqa ma'lumotlarni uzatish yoki qabul qilish uchun asboblari, shu jumladan simli yoki simsiz tarmoqda (masalan, lokal va global aloqa tarmoqda) aloqa uchun apparatlar, boshqalar:	
	bazaviy stansiyalar:	8517 61 000
	raqamli simli aloqa tizimlari uchun	8517 61 000 1
	2,2-10 GGs tashuvchi chastotalar diapazonida ishlash imkoniyatiga ega simsiz aloqa tarmoqlari uchun	8517 61 000 2
	boshqalar (bazaviy stansiyalar bilan bog'liq boshqa tovarlar)	8517 61 000 8
7.	faqat tashuvchining to'lqin uzunligi 1270 — 1610 nm diapazonida ishlaydigan optik tolali aloqa tizimlari uchun uskunalar	8517 62 000 2
	simlar izolatsiya qilingan (shu jumladan emallangan yoki anodlangan), kabellar (shu jumladan, koaksial kabellar) va boshqa izolatsiyalangan elektr o'tkazgichlar, ulagichlari bo'lgan yoki ulanmagan; elektr o'tkazgichlari yoki ulagichlari bilan yig'ilgan yoki yig'ilmagan alohida qoplamali tolalardan iborat optik tolali kabellar:	
	telekommunikatsiya sohasida qo'llaniladigan	8544 42 100 0
	optik tolali kabellar	8544 70 000 0

”.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-iyundagi “Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-283-son qarorining **13-bandidagi** “85 milliard” so'zlari “25,5 milliard” so'zlari bilan almashtirilsin.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-avgustdagi “Zamonaviy bilim va kasb-hunar egallash imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-350-son **qarorida**:

a) **4-bandda**:

birinchi va **uchinchi xatboshilarda** “iste'mol kreditlari” so'zlaridan keyin “va mikroqarzarlar” so'zlari bilan to'ldirilsin;

quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“iste'mol kreditlari kompyuter sotayotgan tadbirkorlik subyekti hisobvarag'iga o'tkaziladi; mikroqarzarlar yoshlarning arizalariga ko'ra ularning bank kartalariga naqdlashtirish imkoniyatini cheklagan holda o'tkaziladi”;

b) 7-bandning **“b” kichik bandi** hamda **8-bandida** “iste'mol kreditlari” so'zlaridan keyin “va mikroqarzarlar” so'zlari bilan to'ldirilsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-357-son **qarorida**:

a) **8-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida IT-ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish hamda eksportga yo'naltirish bo'yicha startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan Dasturiy mahsulotlar va

axborot texnologiyalari texnologik parki tomonidan o'tkaziladigan tanlov asosida 1 milliard so'mgacha bo'lgan grantlar ajratish tartibi joriy qilinsin”;

b) 18-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “2023-yil 1-iyulga qadar” va “10 foizi” so'zlari tegishincha “2023-yil 1-sentabrdan boshlab” va “2 foizi” so'zlari bilan almashtirilsin;

v) 19-bandning **“b” kichik bandida:**

birinchi xatboshisidagi “axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh. Shermatov” so'zlari “Raqamli texnologiyalar vazirligi” so'zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshisidagi “Bosh vaziriga” so'zlari “Vazirlar Mahkamasiga” so'zlari bilan almashtirilsin;

g) **1-ilovaning** 66-pozitsiyasi “Muddati” ustunidagi “2023-yil iyul” so'zlari “2023-yil sentyabr” so'zlari bilan almashtirilsin;

d) **2-ilovaning** 46-pozitsiyasi “Mas'ul ijrochilar” ustunidan “Xavfsiz shahar” markazi” so'zlari chiqarib tashlansin;

e) **3-ilovaning** 23-pozitsiyasi “Muddati” ustunidagi “2023-yil oktyabr”, “2023-yil noyabr” va “2023-yil dekabr” so'zlari tegishincha “2023-yil dekabr”, “2024-yil avgust” va “2025-yil iyul” so'zlari bilan almashtirilsin;

j) **8-ilovaning** 6-pozitsiyasi “Muddati” ustunidagi “2023-yil may” so'zlari “2023-yil noyabr” so'zlari bilan almashtirilsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-noyabrdagi “Kosmik tarmoqni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-429-son qarori **6-bandi** quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“O'zbekkosmos” agentligiga unga yuklatilgan qo'shimcha vazifalarni inobatga olgan holda uning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash va xodimlarining mehnatini qo'shimcha moddiy rag'batlantirish uchun Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasidan qo'shimcha mablag'lar ajratilishi mumkin”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son **Farmoniga**
7-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilayotgan ayrim hujjatlari

RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi “O'zbekiston Respublikasida kosmik faoliyatni rivojlantirish to'g'risida”gi PF-5806-son Farmonining **2 va 4-bandlari**.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasida kosmik tadqiqotlar va texnologiyalarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi F-5209-son **farmoyishi**.

3. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 781-son qarori 1-bandning **ikkinchi xatboshisi, 2 va 8-bandlari**.

4. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ro'yxatga olish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 593-son qaroriga **4-ilovaning 93-bandi**.

5. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-avgustdagi ““El-yurt umidi” jamg'armasi faoliyatiga hamda ta'limga oid qonunchilik takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida”gi 511-son qaroriga **1-ilovaning 11-bandi**.

6. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-noyabrdagi “2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining kosmik tarmog'ini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 688-son qarorining **4-bandi va 3-ilovasi**.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.05.2023-y., 06/23/76/0296-son; 29.08.2023-y., 06/23/151/0661-son; 30.09.2023-y., 06/23/164/0737-son)